



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 10-avgust, shanba,
92-93 (23.969-23.970)-son

**KUN
HIKMATI**

Qonunbuzardan
bir yoki
ikki kishi
jabr ko'radi,
adolatsizlikdan
esa butun xalq

Zarafshon



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

BIZ BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

Qonunga ko'ra

Prezident Shavkat Mirziyoyev "O'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonunni imzoladi.

Bu ko'pchilik aholi kutayotgan, millionlab oilalar hayotiga daxldor masala edi. Dastlabki o'rganishlarga ko'ra, hozirda huquqiy hujjatlari yo'q yoki to'liq bo'lmagan 3 million 600 mingdan ortiq yer uchastkalari mavjud.

O'zboshimchalik bilan egallangan yerlarga egalik beriladi

Shu bois davlatimiz rahbari 2023-yil 21-noyabrda yer hisobi va kadastr xizmatlari bo'yicha o'tgan videoselektor yig'ilishida bu masalani qonuniy hal etish zarurligini aytgan edi. Shunga muvofiq, soha mutaxassislari va deputatlar ishtirokida qonun loyihasi ishlab chiqildi. Bunda Italiya, Bolgariya, Xorvatiya, Chexiya va boshqa davlatlarning ijobiy tajribasi inobatga olindi. Oliy Majlis palatalari muhokamalarida pishitildi.

Qonun 6 ta bob va 35 ta moddadan iborat bo'lib, unda quyidagi yer va mulklarga nisbatan huquqlar e'tirof etilmoqda:

1) 2018-yil 1-may kuniga qadar fuqarolar yakka tartibdagi uy-joy qurgan holda o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;

2) 2018-yil 1-may kuniga qadar fuqarolar va tashkilotlar tomonidan hujjatda ko'rsatilgan maydondan ortiqcha egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;

3) "bir martalik aksiya" doirasida huquqlarni e'tirof etish oxiriga yetmagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;

4) 2021-yil 8-iyungacha qadar tuman (shahar) hokimi qarori bilan ajratilgan, lekin viloyat hokimi yoki xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanmagan yer uchastkalariga;

5) bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turarjoylar hamda ular egallagan yer uchastkasiga;

6) kichik sanoat zonalariga 2020-yil 9-martgacha joylashtirilgan tadbirkorlarning yer uchastkasiga;

7) davlat orderi bilan xususiy lashtirilgan binolar va uylar egallagan yer uchastkasiga;

8) hokim qarori bilan mulk huquqi e'tirof etilgan binolar va uylar egallagan yer uchastkasiga.

Qonunda huquqlarni e'tirof etishning asosiy shartlari ham aniq belgilangan. Masalan, yer boshqa shaxsga ajratilmagan yoki auksiyaga chiqarilmagan bo'lishi, yer bo'yicha nizo bo'lmasligi, bosh reja talablariga zid emasligi va boshqa omillar hisobga olinadi.

Huquqlarni e'tirof etish hududlar bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga taalluqli ma'lumotlarni va hujjatlarni kelishish Kadastr agentligining avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizimga 15 ta vakolatli tashkilot ham tegishli ma'lumotlarini kiritadi.

To'plangan hujjatlarning to'liqligi va qonuniyligi viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tekshirib chiqiladi. Ularning natijalari mahalla burchaklari, Kadastr agentligining sayti orqali jamoatchilikka e'lon qilinadi. Ijoiy xulosa qabul qilingan fuqarolarga SMS-xabaromna yuboriladi. U asosida bir martalik to'lovni amalga oshirganlarga har chorakda Xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan huquqlar e'tirof etiladi.

Prokuratura, ichki ishlar, agrospeksiya, ekologiya, kadastr organlari qonunni amalga oshirishda davlat nazoratini o'rnatadi. Shuningdek, qonunda jamoatchilik nazoratiga alohida e'tibor qaratilgan. Ya'ni, xalq deputatlari tuman Kengashlari qarori bilan har bir mahallada jamoatchilik guruhi tashkil etiladi. Bu guruhlarga mahalla joylashgan okrugdan saylangan tuman Kengashi deputati, mahalla raisi va faol fuqarolar kiritiladi.

Turarjoylar, xususiy lashtirilgan yoki mulk huquqi e'tirof etilgan bino va inshootlar ostidagi yer uchastkalariga huquqlarni e'tirof etish uchun bir martalik to'lov olinadi. Bu to'lov Toshkent shahrida bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari, Nukus shahri va viloyat markazlarida 3 baravari, shaharlarda 2 baravari va boshqa aholi punktlarida bir baravarini tashkil etadi. Ijtimoiy himoya yagona reestriga kiritilgan va nogironligi bo'lgan shaxslarga chegirma beriladi.

Bir martalik to'lovdan kadastr va adliya idoralari, "O'zbekKosmos" agentligining xarajatlari qoplanadi. Qolgan mablag'lar tashabbusli budjet tadbirlariga yo'naltiriladi, ya'ni o'sha mahallalarning o'ziga sarflanadi.

Qonun 3 oydan keyin kuchga kiradi, unga qadar joylarda targ'ibot, tushuntirish va tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Qonun 2028-yil 1-yanvargacha qadar amal qiladi.

Hokim bulung'urlik yoshlar bilan uchrashdi

Yaqinda Prezident ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda har bir viloyat hokimi oyda bir marta, tuman hokimlari esa haftada bir bor yoshlar bilan uchrashishi bo'yicha topshiriq berilgandi.

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida shu yilning 11-iyul kuni viloyat hokimi Erkinjon Turdimov pastdarg'omlik yoshlar bilan uchrashgandi. Navbatdagi uchrashuv bulung'urlik yoshlar bilan o'tkazildi.

Tumanning Esonturdi mahallasida o'tkazilgan uchrashuvda 30 nafarga yaqin yoshlar tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yoki kengaytirish, sportsevar yoshlarni qo'llab-quvvatlash, startap loyihalarni amaliyotga joriy etish, subsidiya, imtiyozli bank krediti, bandlik, tibbiy yordam kabi masalalarda hokimga murojaat qildi.

- Biz yashaydigan hudud mahalla markazidan olisda, - deydi G'o'bdin mahallasida yashovchi Umida Farmonqulova. - Maktabga qatnash ancha qiyinchilik tug'diradi, yo'lga soatlab vaqtimiz ketadi. Agar



qishlog'imizni markaz bilan bog'lovchi avtobus qatnovi yo'lga qo'yilgani, yaxshi bo'lardi. Uchrashuvda shu masala bilan viloyat hokimiga murojaat qildim. Masala yuzasidan mas'ullarga topshiriq berildi.

Ayni paytda ta'lim olish, ishlash istagida xorijda bo'lgan bulung'urlik yoshlar ham hokim bilan onlayn muloqot qildi.

- Hozir Rossiyaning Chelyabinsk shahridan, - deydi Javohir Alimqulov. - Bakalavr yo'nalishi

bo'yicha oliy o'quv yurtini tamomlab, magistraturaga hujjat topshirdim. Imkon bo'lsa, o'qishimni O'zbekistonga ko'chirib, olgan bilimlarimni amaliyotda qo'llash niyatidaman.

Hokim Javohir Vatanga qaytsa, viloyat hokimligida ham ish boshlashi mumkinligini ta'kidladi va mas'ullarga hamyurtimizning mutaxassisligi, qiziqishi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar olish yuzasidan topshiriq berdi.

Uchrashuv davomida 71-maktab sport zalining polini ta'mirlash, "Humo" istirohat bog'ida attraktsionlar o'rnatish, 9-musiqa va san'at maktabi faollar zalini ta'mirlash, 2-maktabda xalqaro standartlar asosida nemis tilini o'qitish tizimini yo'lga qo'yish, Xo'jamzgil mahallasidagi sport maydonchasini tungi yoritish tizimlari bilan ta'minlash, "Diyor" o'yingohidagi rindiqlarni yangisiga almashtirish kabi masalalar yuzasidan takliflar bildirildi.

To'liq SIDDIQOV.



INSON FAROVONLIGIGA YO'NALTIRILGAN BUNYODKORLIK

Inson o'ziga va oila a'zolariga qulay sharoit yaratish, yaxshi yashash maqsadiga qaratiladi. Yoki farovon turmush kechirishi uchun barcha imkoniyatlarga ega uy-joy xarid qiladi. Bunga ham qachonki, moliyaviy quvvati, iqtisodiy imkoniyati yetsagina erishadi. Davlat ham shunday – xalq uchun munosib turmush sharoiti yaratib berishni o'z zimmasiga oladi. Lekin buning uchun mamlakat iqtisodiyoti barqaror, moliyaviy resursi boy bo'lishi lozim.

Bugun yurt kezib, mahallalarda bo'lsangiz har bir ko'chada qurilish qilayotgan xonadonlarga duch kelasiz, yangi inshootlar qurilayotganini ko'rasiz. Nainki shaharlar, balki tumanlarda ham ko'p qavatli turar joy binolari bunyod etilayotganiga, yangi yo'l va ko'priklar qurilayotgani, suv va elektr tarmoqlari tortilayotganiga guvoh bo'lasiz. Bu albatta, xalqning farovon turmush kechirish istagi bilan birga iqtisodiy imkoniyati kengayayotgani, o'z navbatida davlatning yangi qurilishlarni amalga oshirishga salohiyati yetayotganidan dalolat beradi.

Ayni chog'da viloyatimiz shahar va qishloqlarida ham ulkan qurilish-bunyodkorlik ishlari davom etmoqda. Samarqand shahridagi Qorasuv massivida yangi shaharcha paydo bo'lgani, eshakk eshish kanali atrofiga ulkan xalqaro turistik markaz qurilgani, yo'llar, kommunikatsiya tarmoqlari tartibga kelib qolgan, Urgut va Bulung'ur tumanlarida "Yangi O'zbekiston" massivlari bunyod etilib, nomiga mos tarzda yangicha turmush bo'y ko'rsatganiga ko'p bo'lmadi. Keyingi 6-7 yil ichida amalga oshirilishi muvofiq. Bunday o'zgarishlar, bunyodkorlik ishlari Bulung'urdan Paxtachigacha, Urgutdan Qo'shrabotgacha – viloyatning barcha hududlarida olib borilayotgani ham haqiqat.

– O'tgan yil viloyatimizda investitsiya dasturi doirasida 1 trilion 190 milliard so'm mablag' ajratilib, 194 ta obyektida qurilish ishlari amalga oshirilgan

bo'lsa, bu yil 1,5 trilion so'm mablag' sarflanib 244 ta obyekt bunyod etilmoqda, - deydi viloyat hokimi o'rinbosari Akmal Shukurov. – Jumladan, 32,2 ming o'quvchi o'rinni 106 ta umumta'lim maktabi, 27 ta maktabgacha ta'lim, 4 ta oliy ta'lim, 10 ta tibbiyot muassasasida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Yil boshidan buyon 371 milliard so'm mablag' evaziga 663 kilometr yo'l rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi. Yil yakuniga qadar yana 508 kilometr ichki ko'chalarga asfalt yotqizilishi, 1000 kilometrdan ziyod ko'chalarga shag'al qoplamasi to'shalishi, 5 ta yangi ko'priklar qurilib, 18 tasi ta'mirlanishi ko'zda tutilgan. Xalqaro moliya muassasalari mablag'lari hisobidan Samarqand shahrida bitta yo'l o'tkazgich qurilib, ikkinchisida ishlar davom etmoqda. Amir Temur, Gagarin ko'chalari rekonstruksiya qilindi.

Viloyat aholisining ichimlik va oqova suv ta'minotini yaxshilash maqsadida yilning birinchi yarmida 35,8 kilometr suv tarmoqlari qurildi, 35 dona nasos energiya tejamkorlariga almashtirildi.

Misol uchun, Kattaqo'rg'on tumanida 20 kilometr suv tarmog'i tortilib, 4 dona yangi suv nasosi o'rnatilishi va 8 ta suv nasosi ta'mirlanishi hisobiga tumandagi uch mahallada 1,5 mingdan ziyod aholi ilk bor ichimlik suv bilan ta'minlandi, 2 mingga yaqin aholining suv ta'minoti yaxshilandi.

Davlat dasturlari hamda mahalliy budjet mablag'lari

11-avgust – Quruvchilar kuni

hisobidan yil yakuniga qadar viloyatda 8 ta yangi suv inshooti va 193 kilometr suv tarmoqlarini qurish, 2 ta suv inshootini rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Bu ishlar natijasida 150 ming nafar aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanadi, 81,9 ming nafar aholining suv ta'minoti yaxshilandi, markazlashgan suv ta'minoti 74,5 foizdan 78,6 foizga yetkazildi.

Bu haqda gap borganda, yirik loyihalardan biri sifatida Nurobod tumanidagi "Nurobod-Damxo'ja" suv saqlash inshootini rekonstruksiya qilish va 95,8 kilometr ichimlik suv tarmoqlari tortilayotganini qayd etish lozim. Bu ishlar muvaffaqiyatli amalga oshirilgach, viloyatning suv ta'minoti eng muammoli bo'lgan hududi hisoblangan Nurobod tumani markazi, tumanning Nurbuloq, Po'latchi, Sho'rchi, Yuksalish, Omonboy, Kechkeldik, Nurdum, Sharq yulduzi, Achamayli, Yangiqishloq, Mash'al, Madaniyat, Sho'rbo'ld va Qilichli mahallalaridagi 18,5 ming aholining ichimlik suv ta'minoti yaxshilandi.

Kattaqo'rg'on tumani markazida 32,7 kilometr oqova suv tarmog'i va 2 ta nasosni qurish hisobiga tumandagi 7500 aholi ilk bor oqova xizmati bilan ta'minlanadi.

– Elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash maqsadida 6 oy davomida 160 kilometr elektr tarmoqlari qurilib, 86 dona transformator, 5165 dona temirbeton ustun o'rnatildi, - deya so'zida davom etadi A.Shukurov. – Birgina Ishtixon tumanida 18 kilometr elektr uzatish tarmog'i tortilib, 8 ta transformator punkti va 1177 dona temirbeton ustun qo'yildi va 16 mingdan ziyod aholining elektr ta'minoti yaxshilandi. Vaholanki, yaqin yillarda bitta transformatorni yangisiga almashtirish yoki eski simyog'ochlar o'rni o'ntagina yangi temirbeton tayanch o'rnatish ham muammo edi. Bu boradagi ishlar davom ettirilib, yil yakuniga qadar 200 kilometr elektr tarmoqlari yangidan quriladi, 60 dona transformator punkti va 5 mingdan ziyod temirbeton ustunlar o'rnatiladi. Hududlarda 8 ta yangi podstantsiya qurilib, 288 MVt yangi quvvatlar yaratiladi.

Aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirish maqsadida o'tgan yil viloyatimizda 10 mingdan ziyod xonadonli uylar foydalanishga topshirilgan bo'lsa, joriy yilda 11 ming 300 xonadonli 182 ta ko'p qavatli uylarda qurilish ishlari olib borilmoqda. Bulung'ur va Urgut tumanlaridagi "Yangi O'zbekiston" massivlari qatoriga bu yil Samarqand shahridagi Qorasuv va Toyloq tumanidagi Charqod'bon mahallalari ham qo'shildi.

Yangi uy-joylar qurilishi bilan birga mavjud ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash, ushbu xonadonlarda ham alohi uchun zamonaviy turmush sharoitlari yaratish ham e'tibordan chetda qolgan emas. Joriy yilda viloyat bo'yicha 183 ta ko'p kvartirali uy muqammal va joriy ta'mirlanmoqda. Jumladan, 93 ta uyning tom qismida va 94 ta uyning fasad qismida ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

MALINACHILIK

Nayman mahallasining drayveriga aylandi

Samarqand viloyatining Jomboy tumani qishloq xo'jaligida meva-sabzavotchilik asosiy tarmoq hisoblanadi. Hududda juda katta maydonda intensiv bog'lar yaratilgan, shuningdek, sabzavot yetishtiriladigan yer maydonlari ham boshqa ekinlarga qaraganda ancha ko'p. Shu paytgacha bu yerlarda an'anaviy dehqonchilik ekinlari parvarishlangan bo'lsa, keyingi yillarda brokoli karami, soya, gulkaram, luk pari, malina singari yangi turdagi mahsulotlar yetishtirilmoqda.

Xususan, malina yetishtirish bugun jomboyliklar uchun serdarmad yumushlardan biriga aylandi. Tumanning Nayman mahallasida esa malinachilik drayver sifatida belgilangan. Bunga shu mahallada yashovchi O'tkir Abdullayev oilasi sababchi bo'lgan, desak xato bo'lmaydi.

O'zimizning hovlimizda,

tomorqamizda 200 dona ko'chat

ekish bilan ishni boshlaganmiz

va yillar davomida sekin-asta

ko'paytirib, gektarga aylantirdik,

– deydi O'tkir Abdullayev. – Juda

bugun ko'payib qoldi. Hatto shu yo'nalishda dehqon xo'jaliklari tashkil etildi. Aytishlaricha, bugun ushbu mahallaning o'zida o'ndan ortiq dehqon xo'jaligi tasarrufida 6 gektar malina plantatsiyasi yaratildi. Qo'shni qishloqlardagi maydonlar bilan hisoblaganda malina maydonlari 20 gektarga yetdi, deyishyapti naymanliklar.

Hozir mahallamizdagi 200 ga yaqin xo'jalik malinachilik bilan shug'ullanayapti, – deya so'zida davom etadi O'tkir Abdullayev. – Ularning qariyb 100 tasiga o'zim

so'tish kerak. Boshqa paytda ham ko'chatni olish, ekish mumkin. Lekin ko'chatlarning barchasi amal olishi qiyin. Fevralda esa barcha ko'chatlar to'liq ko'karishiga amin bo'lganmiz. Masalan, biz har yili gektaridan 15-20 mingtagacha ko'chat kovlab olib, shundan ham 200 million so'mgacha daromad qilamiz. Ayrimlar kelgusi yilda hosil kam bo'lmasin deb, ko'chatni olmaydi. Aslida esa yondan o'sib chiqqan ko'chatlarni olib, malina sho'xlarini qancha siyrak qilib qoldirsangiz, shuncha ko'p hosil olasiz. Muhimi, malina ko'chati ekilgan yilidayoq hosilga kirib, xarajatlaringizni qoplaydi, daromad ham beradi. Qishlog'imizdan bir qo'shimiz shu yil boshida mendan 22 million so'mga ko'chat sotib olib, malinazor yaratgandi. Aytishicha, shu paytgacha 30 million so'mlik malina sotibdi.

Ekinga ishlov berish ham o'sha paytda – fevralda bo'ladi. Eski sho'xlar kesib tashlanadi, qator oralariga go'ng va ammofos solib, yer ag'dariladi. Boshqa paytda hech qanday agrotexnik tadbirlar bajarilmaydi, sho'xlari g'ovlab ketmasligi uchun sim tortilib, ko'tarib qo'yiladi.

Birni mingga, mingni tumaniga, degan gap bor xalqimizda. Naymanda ham O'tkir Abdullayev boshlagan malinachilik bugun butun mahalla ahlining asosiy daromad manbaiga aylandi. Aholi tomorqasidan tashqari, hatto uyning orqasida, yo'l yoqasida ham malina ekib, daromad

Hozir 200 dan ziyod xonadon shu ish bilan shug'ullanadi va ularning safi yil sayin kengayib bormoqda. Daromadi yaxshi bo'lgani uchun mana shu Nayman ko'chamizda ham yo'ning ikki tomonida odamlar malina ekishgan.

Mahallalarda "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili asosida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish yo'lga qo'yilganda biz malinachilikni tanlaganmiz, – deydi Nayman mahallasidagi hokim yordamchisi Yorqin Mardonqulov. – Chunki 200 dan ortiq xonadonda malina parvarishlanadi va bir sotixdan 4-5 million so'm daromad qilinadi. Har bir xo'jalikda o'rtacha 5-6 sotixdan tomorqa borligini hisobga olsak, shu yerdan bir yilda 25-30 million so'mgacha daromad qilish mumkin. Mehnati unchalik og'ir emas, xarajat talab qilmaydi. Shuning uchun 2026-yilga borib, mahallamiz to'liq malinachilikka ixtisoslashishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, aholini tadbirkorlik va kasb-hunarga o'rgatish orqali daromad topishini ta'minlashga ham e'tibor qaratyapmiz. Davlatimiz rahbari topshiriqlari asosida mahallalarda mikroloiyahalarni amalga oshirish belgilangan. Bizda ham shu paytgacha 12 ta mikroloiyaha tayyorlanib, shu paytgacha 11 tasi ishga tushdi. Buning uchun mahalladoshlarimizga 9 loyiha bo'yicha imtiyozli kredit, 1 ta loyiha uchun subsidiya berildi. Yil yakuniga qadar mikroloiyahalarni 30 taga yetkazishni rejalashtirganmiz.



qilishga intilmoqda.

Ikki yildan buyon mahalla raisidan, asosiy drayverimiz – malina yetishtirish, – deydi "Nayman" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Sanjar Karimov. – Bunga ko'p vaqt bo'lgan emas, uch yildan buyon hokim yordamchisi bilan birga aholi o'rtasida targ'ibot ishlarni olib boryapmiz.

Bugun Nayman mahallasi misolida aytish mumkinki, Jomboy tumanidagi 38 mahallaning har birini rivojlantirishning asosiy drayverlari aniqlanib, aholi daromadlarini oshirish, hudud infratuzilmasini yaxshilash borasida aniq dasturlar asosida ish olib borilmoqda.

**G'.HASANOV,
A.ISROILOV (surat).**

Samarqandda "Meros international hospital" klinikasi faoliyat boshlagani va bu yerda robotlashtirilgan jarrohlik amaliyoti amalga oshirilishi haqida xabar bergandik. Kuni kecha ilk bor robotlashtirilgan jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

Samarqandda ilk bor robotlashtirilgan jarrohlik amaliyoti o'tkazildi

O'ng buyrak o'smasi tashxisi qo'yilgan bemorda ushbu holatni bartaraf etish Toshkent urologiya markazi jarrohlik bo'limi boshlig'i, tibbiyot fanlari doktori Zarifxo'ja Bahodirxonov boshchiligidagi bajarildi.

Jarroh mazkur operatsiyani bevosita emas, bilvosita, o'tirgan joyida boshqaradi, – deydi klinika direktori o'rinbosari Azamat Umirov. – Robotlashtirilgan modulning afzallik tomonlari shundaki, u yuqori aniqlikda ishlaydi va amaliyot maydonini bir necha marta kattalashtirib beradi. Bu esa o'z navbatida organizmning ko'z bilan ko'rish murakkab bo'lgan nuqtalarini ilg'ash imkonini beradi. Murakkab jarrohlik amaliyotlarida 4-5 nafar jarroh ishtirok etsa, bunda bir jarrohning o'zi va yordamchisi butun operatsiyani boshqarishi mumkin.

Robotlashtirilgan modul tizimi xorijda keng tarqalgan bo'lib, asosan onkurologik, onk-

oginekologik kasalliklarda keng qo'llaniladi. Robot orqali jarroh amaliyotini amalga oshirish uchun klinikamizning to'rt nafar jarrohlari koreyalik mutaxassislar tomonidan o'qitildi.

Hozir o'tkazilgan operatsiya ikki soatdan ortiq davom etishi mumkin. An'anaviy amaliyotda ham operatsiya shuncha vaqt davom etadi va bemor tanasida katta kesma bo'ladi, qon ketish asoratlari yuzaga kelishi, qorin devori mushaklarining mustahkamligi susayishi ehtimoli katta.

Shuningdek, klinikada ushbu yangi uskuna yordamida ginekologiya, onkologiya, obdometal jarrohlik bo'yicha operatsiyalar amalga oshiriladi.

Ushbu uskuna hozircha Toshkent va Samarqandda, Markaziy Osiyo davlatlari orasida Qozog'istonda bor.

**Gulruh MO'MINOVA,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).**



Vaqtida olinmagan pensiyaning to'lash muddati 12 oydan 24 oyga uzaytirilgan

Viloyatimizda bugungi kunda budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi hisobidan pensiya oluvchi 428 mingdan ortiq fuqaro bor. Jumladan, 361 ming 299 kishi yoshga doir, 41 ming 603 kishi nogironlik va 25 ming 217 nafar shaxs boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oladi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 27-fevraldagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan boshlab pensionerga hisoblangan, lekin o'z vaqtida olinmagan pensiyani to'lash muddati 12 oydan 24 oyga uzaytirildi.

Misol uchun, fuqaro salomatligini tiklash masalasida Turkiya davlatiga ketdi, pensiya pullarini olib turish uchun ishonchli vakilga ishonchnoma qoldirdi. Fuqaro 2 yil 10 oy O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelolmadi va uning ishonchli vakili bir yilga qoldirilgan ishonchnoma orqali uning pensiya pullarini olgan hamda keyingi ishonchnoma bo'lmaganligi sababli pensiya puli to'xtatib qo'yilgan va 1 yil 10 oylik pensiya puli olinmasdan qolgan.

Fuqaro O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelib, olinmay qolgan pullarini to'lashni so'rab murojaat qilganda, unga 1 yil 10 oy (24 oyga yetmagan) pensiya pullari to'lab beriladi. Ilgari amalda bo'lgan qoidaga ko'ra, unga 12 oylik pensiya puli to'lab berilar edi.

**A.NE'MATOV,
Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi viloyat boshqarmasi boshlig'i.**



foydali, eng muhimi serdarmad ish. Lekin avvallari bizda hech kim malina yetishtirish bilan shug'ullanmagan. Bundan o'n yilcha oldin Koreya, Rossiya davlatlariga borib ishlash jarayonida shu ekin parvarishi bilan qiziqib, keyin o'zimizning hovlida ekib ko'rdim. Rossiyaning "Bobo leto" navini ekanmiz va bu nav bizning iqlimimizga juda mos keldi. Malina ko'p suv talab qiladigan ekin, har uch kunda sug'orib turamiz, havo harorati ham juda issiq bo'lmasligi kerak. Bizning yerlarimiz Zarafshon daryosi va Mirzaariqqa yaqin bo'lgani uchun malina yetishtirishga qulay ekan-da. Yaxshi hosil beradi. Birinchi yildan gektariga 1 tonnagacha hosil olish mumkin. To'rtinchi yildan esa 8-10 tonnagacha yetadi. O'rta hisobda 200 million so'm sof daromad qilish mumkin. Daromadning 30 foizi ishchilarga beriladi, chunki mavsum davomida 35-40 nafar ayol malina teradi. Umumman, bir gektar malinasi bor dehqon 15-20 kishini ish bilan ta'minlaydi. Ilyundan dekabrqa qadar malina terish mumkin.

O'tkir Abdullayev tomorqasida 3-4 sotix yerda malina yetishtirib, bu ishning hadisini olgach, o'zi va oila a'zolari uchun ijara yer olib, hozirda 3 gektar maydonda malinazor tashkil etgan. Unga havas qilib, undan o'rganib xonadonida malina parvarishlayotgan oilalar ham Naymanda

ko'chat berganman. Bu ekinning daromadini ko'rgan odam boshqa ish bilan shug'ullanmaydi, faqat malina ekadi. Men dastlab shu ish bilan shug'ullanganimda "kim oladi buni, hech kim yemaydi-ku" deganlar ham bo'ldi. To'g'ri, ilgari malinani asosan shaharda boshqa millat vakillari xarid qilardi. Mana, endi o'zimizing xalqimiz ham malinaning foydali, shifobaxsh ne'mat ekanligini angladi. Muhimi, mahsulotga xaridor izlamaymiz. Mahallamizdan kelib, olib ketishadi. Ayni paytda Samarqanddan tashqari, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlaridan xaridorlarimiz bor, Toshkentga ham yetkazib beramiz. Men shu paytgacha malinaga xaridor topolmay qolgan odamni ko'rmadim. To'g'ri, boshida Samarqand shahriga borib, o'zimiz mahsulotni sotganmiz, konditer sevlari bilan hamkorlik qilganmiz. Endi esa Samarqand shahridagi qaysi bozorga bormang, bizning mahallada – Naymanda yetishtirilgan malinani yetkazib beruvchilar va sotuvchilar bor.

Malinachilikning yana bir foydali jihati – ko'chat yetishtirib so'tish. Malina urug'idan yoki qalamchidan ko'paytirilmaydi, yonidan o'sib chiqadi. Har yili ularni olib, ko'chat sifatida sotamiz. Bu ham hech qanday ortiqcha xarajat, mehnat talab qilmaydi. Faqatgina fevral oyida, malina uyg'onishidan oldin ko'chatni kovlab olib,

Bog'da ham meva, ham sabzavot

Joriy yilda viloyatimizda 23 ming 115 gektar yerda sabzavot, 1565 gektarda poliz va 21 ming gektarda kartoshka parvarishlanmoqda. Shu bilan birga, bog'-tok qator oralarida 45 ming 505 gektar maydonda sabzavot ekinlari yetishtirilmoqda. Dehqonchilik va bog'dorchilikda boy tajribaga ega Toyloq tumanida bu borada amalga oshirilayotgan ishlarga havas qilsa arziydi.

Tumandagi "Ermatov Suyunboy Boboqulovich" fermer xo'jaligi bog' qator oralariga ekin ekib, yaxshigina daromad qilayotganlardan biri.

Tasarrufimizdagi 30 gektar yerning 15 gektari bog', – deydi fermer xo'jaligi raisi Suyunboy Ermatov. – Uning 2,5 gektari yangi bog' bo'lgani uchun daraxt ko'chatlari hali kichik. Shu bois daraxtlar hosilga kiringunga qadar qator orasida ekin ekamiz. Bu yil ham bog'imizda bahorda kartoshka ekib, mo'l hosil oldik. Endi ikkinchi ekin sifatida loviya, karam, piyoz, bulg'or qalampiri, sholg'om, sabzi parvarishlayapmiz. Kuzda bu mahsu-

lotlarni yig'ishtirib olgach, to'qsonbosti usulida sarimsoqpiyoz, piyoz va boshqa ekinlar ekamiz.

Har bir qator 10 sotixni tashkil etadi. O'rtacha hisoblaganda ham qatoridan 5-6 million so'mlik mahsulot yetishtirib, yiliga 80 million so'mdan ortiq daromad olayapmiz.

Viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, bog' qator orasidan unumli foydalanish uchun kuzgi mavsumda qariyb 31 ming gektar yerda to'qsonbosti usulida ekinlar ekish ham rejalashtirilgan.

B.MUSTANOV.



Viloyat Kengashiga saylov o‘tkazuvchi saylov okruglari tuzildi

6-avgust kuni viloyat hududiy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi o‘tkazildi. Komissiya raisi X.Muhammadiyev boshqargan yig‘ilishda dastlab tuman va shahar saylov komissiyalarini tuzish to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqildi.

Saylov kodeksining 19-moddasiga ko‘ra, tuman, shahar saylov komissiyalari a‘zolariga nomzodlar xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining majlislarida muhokama qilinadi hamda hududiy saylov komissiyasiga tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

14 tuman va 2 shahar Kengashi tomonidan tuman va shahar saylov komissiyalari a‘zolariga nomzodlar tarkibi shakllantirilib, tasdiqlash uchun viloyat hududiy saylov komissiyasiga taqdim etilgan.

Komissiya nomzodlarni ko‘rib chiqib, ularni tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qildi.

– Tuman, shahar saylov komissiyalari tarkibiga 364 nafar shaxs kiritilgan bo‘lib, ularning 160 nafari, ya‘ni 48 foizi xotin-qizlardan iborat, – deydi viloyat hududiy saylov komissiyasi raisi o‘rinbosari Sanjar Nazarov. – A‘zolarning 199 nafari ilgari ham saylov komissiyalari tarkibida ishlagan, bu borada tajribaga ega. Oliy ma‘lumotlilar – 294 nafar, o‘rta-maxsus ma‘lumotlilar – 38 nafar. Mutaxassisligi bo‘yicha 60 nafari pedagog, 60 nafari iqtisodchi, 24 nafari

huquqshunos, yana 24 nafari tibbiyot xodimi, 20 nafari muhandis. Komissiya a‘zolarining 131 nafari 31-40 yoshlilar, 105 nafari 41-50 yoshlilar, 48 nafari 51-60 yoshlilar tashkil etadi.

Tuman, shahar saylov komissiyalari tarkibi, manzili va komissiyaning telefon raqamlari rasmiy veb-sayt va matbuot nashrlarida e‘lon qilinadi.

Shuningdek, majlisda hududiy saylov komissiyasi qoshida matbuot markazi tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Komissiyaning 7-avgust kuni o‘tkazilgan yig‘ilishida xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi saylov okruglarini tuzish to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqildi.

Majlisda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi deputatligiga saylov o‘tkazuvchi 60 ta saylov okrugi tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Viloyat hududiy saylov komissiyasi matbuot markazi.

Samarqand viloyati hududiy saylov komissiyasining QARORI

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi saylov okruglarini tuzish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 9, 20 va 88-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 5-iyundagi 1339-son qarori bilan tasdiqlangan “Saylov okruglari va uchastkalarini tuzish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq Samarqand viloyati hududiy saylov komissiyasi QAROR QILADI:

- Viloyat hokimining “Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o‘tkazuvchi saylov okruglari haqida”gi taqdimnomasi ma‘lumot uchun qabul qilin.
- Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi saylov okruglari ilovaga muvofiq tuzilsin.
- Mazkur qarorning ijrosini ta‘minlash Samarqand viloyati hududiy saylov komissiyasi raisining o‘rinbosari S.Nazarov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hududiy saylov komissiyasi raisi X.MUHAMMADIYEV.

№ 13, 2024-yil 7-avgust

Samarqand viloyati hududiy saylov komissiyasining 2024-yil 7-avgustdagi 13-qaroriga I L O V A

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi saylov okruglari

1-Bog‘ibaland saylov okrugi

Samarqand shahrining Xo‘ja Doniyor, Chilstun, Bog‘ibaland, Jo‘yichuqir, Xo‘jaqishloq, Azizon, Gulobod, Motrid, Xumo, Xo‘jaqunjoy, Obod maskan, Qorasuv, Bahodir Yalangto‘sh, Shodiyona, Ma‘rifat, Geologlar, Qo‘rg‘oncha, Bog‘imaydon, Obirahmat mahallalari, Oqdaryo tumanining Dahbed, Taraqqiyot, Boshdaxon, Po‘latdaxon mahallalari chegaralarida (37240)*.

Manzili: Samarqand shahri Ibn Sino ko‘chasi, 2-uydagi Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali binosi.

2-Afrosiyob saylov okrugi

Samarqand shahrining Qir, Galaosiyo, Rasadxona, Shiring, Cho‘ponota, Bunyod, Zarafshon, Yuksalish, Afrosiyob, Istiqbol, Oqsaroy, G‘iyosiddin Jamshid, Imom Vose, Muborak, Sharq, Hilol, Xo‘ja Zudmurod, So‘fi Roziq, Ko‘kmasjid, Yangi Xayrobod, Dahbediy, Qo‘shhovuz mahallalari chegaralarida (39130).

Manzili: Samarqand shahri Dahbed ko‘chasi, 18-uydagi O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti jismoniy madaniyat fakulteti binosi.

3-So‘zangaron saylov okrugi

Samarqand shahrining Fidoyilar, Xalqobod, Sarbadorlar, Shahriobod, Davlatshoh Samarqandiy, Sharq tongi, Toshkent, Sarbon, Qo‘shbaqqolli, Abdurahmon Jomiy, Bog‘i Feruza, Zominiy, Yominiy, Urgutiy, Dari Zanjir, Ogahiy, Ibn Sino, So‘zangaron, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Xalifa Ibrohim, Xoja Abdu Darun, Sadridin Ayniy, Kaftarxona, Sayxun, Charmgari mahallalari chegaralarida (39809).

Manzili: Samarqand shahri Sayxun ko‘chasi, 2-uydagi 59-ko‘zi oziq bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta‘lim muassasasi binosi.

4-Mustaqillik saylov okrugi

Samarqand shahrining Chashma, Qo‘shchinor, Maroqand, Furqat, Namozgoh, Xoja Ahror Vally, Ibrohimxo‘ja, Eski Qalandarxona, Registon, Chaqar, Amir Temur, Kulollar, Mustaqillik, Ko‘ksaroy, Xoja Yusuf, Birlik, Siyobcha, Anhor, Alisher Navoiy, Bog‘i Temur, Masjidi Qo‘ng‘iroqdor, Devori Ko‘ndalang, Bunyodkor, Nurobod, Hamid Olimjon mahallalari chegaralarida (39584).

Manzili: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 9-uydagi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti binosi.

5-Sartepa saylov okrugi

Samarqand shahrining O‘zbekiston, Navbahor, Mirzo Ulug‘bek, Tadbirkorlar, Ahmad Yassaviy, Lolazor, Madadkor, Kamoliddin Behzod, Mir Sayid Baraka, Farovonlik, Bog‘ichinor, Sayid, Mingtut, Chilquduq, Yoshlik, Navro‘z, Guliston, Zargartepa, Botir Zokirov, Yangiqo‘rg‘on, Sartepa, Hofiz Sheroziy, Xo‘jasoat, Sa‘diy Sheroziy mahallalari chegaralarida (39109).

Manzili: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 2A-uydagi Samarqand ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi binosi.

6-Mehrobod saylov okrugi

Samarqand shahrining Panjob, Ahillik, Bo‘ston, Nurli kelajak, Shukrona, Madaniyat, Nurafshon, Darg‘om, Chorbog‘i, Sayid Rizo Alizoda, Farog‘at, Kattaqo‘rg‘on, Beklar, Mehrobod, Nayman, Kamolot, Amir Temur, O‘rikzor, Al-Xorazmiy, Beshchinor, Mirzo Bedil, Abdulla Avloniy, Marhabo, Semurg‘i, Tokzor mahallalari chegaralarida (39421).

Manzili: Samarqand shahri Hasan Obiddinov ko‘chasi, 7-uydagi Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi binosi.

7-Istiqbol saylov okrugi

Samarqand shahrining Qarshi yo‘li, Terakzor, Bog‘ishamol, Bog‘ishifo, Nafosat, Sadaf, Zulfiya, Istiqbol, Ilg‘or, Tinchlik, Uvaysiy, Mash‘al, Shodlik, Al-Buxoriy, Sug‘diyona, Nodirabegim, Ilmobod, Damariq, Tojmahal, Saxovat, Bahor, Katta ariq, Yulduz, Bog‘bonlar, Bog‘isaroy, Ziyokorlar mahallalari chegaralarida (38740).

Manzili: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 77-uydagi Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti binosi.

8-Turon saylov okrugi

Samarqand shahrining Lohutiy, Gulbahor, Rudakiy, Oltin asr, Adolat, Mevazor, Al-Farobiy, Al-Beruniy, Gullar bog‘i, Ali Qushchi, Orzu, Rahmatobod, Bog‘dod, Bog‘iston, Sevaliota, Tutzor, Turon, Hayotobod, Maqsud Shayxzoda, Yoshlar, Baxti hayot, Matonat, Sayqal, Nurli yo‘li,

Temiryo‘lchilar, Maysazor, Mehnat, Ipak yo‘li, Baraka mahallalari chegaralarida (39066).

Manzili: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 43-uydagi Samarqand davlat chet tillar instituti binosi.

9-Vatanparvar saylov okrugi

Samarqand shahrining Ziyolilar, Hunarmandlar, Hazora, Do‘stlik, Vatanparvar, Yuqori Xo‘jasoat, O‘rta Xo‘jasoat, Qavola, Bog‘i Mirzo, Mo‘liyoni poyon, Mo‘liyon, Bog‘i Safedi, Birlamlik, Dukchiyon, Bekho, Ko‘l, Quyi Xo‘jasoat, Navbog‘chiyon, Yangihayot mahallalari chegaralarida (38839).

Manzili: Samarqand shahri Spitamen shohko‘chasi, 161-uydagi O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti akademik litseyi binosi.

10-Loyish saylov okrugi

Oqdaryo tumanining Loyish, Navro‘z, Mustaqillik, Navoiy, Bozorjoy, Bobur, Oqdaryo, Pichoqchi, Olchintepa, Kumushkent, Paxtaobod, Go‘zalkent, Chorbog‘i, Temirak mahallalari chegaralarida (40002).

Manzili: Oqdaryo tumani Mustaqillik mahallasi, Amir Temur ko‘chasi, 54A-uydagi tuman sport maktabi binosi.

11-Yangiqo‘rg‘on saylov okrugi

Oqdaryo tumanining O‘zbekiston, Amir Temur, Yangiobod, Galaravot, Turon, Yangiqo‘rg‘on, Yangihayot, Avazali, Miyonqol, Istiqlol, Yangiqishloq, Uchtepa, Uzunqishloq, Zarafshon mahallalari chegaralarida (42611).

Manzili: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 37-uydagi tuman madaniyat bo‘limi binosi.

12-Bulung‘ur saylov okrugi

Bulung‘ur tumanining Mehrjon, Do‘stlik, Amir Temur, Bulung‘ur, Yangiqo‘rg‘on, Navbahor, Olmazor, Istiqlol, Kattaqishloq, Yangiariq, Yangiobod, Beshqo‘ton, Mingtepa, Lalmikor, Qo‘ng‘iroq, G‘o‘bdin, Guliston, Samarqand, Ulug‘bek mahallalari chegaralarida (40750).

Manzili: Bulung‘ur tumani Istiqlol mahallasi, Oqtepa ko‘chasi, 105-uydagi 1-kasb-hunar maktabi binosi.

13-Kildon saylov okrugi

Bulung‘ur tumanining Fozil Yo‘ldosh, Oqtosh, Bo‘dana, Erganakli, Nurliyo‘li, Kildon, Sayiltepa, Sarqipchoq, Cho‘yantepa, Chorbog‘i, Avliyo Parpi, Xo‘jamazgil, Nebo‘sa, Niyozmat, Chantal-1, Bulung‘ur ariq, Isori-O‘roqli, Kichik Kildon, O‘roqli mahallalari chegaralarida (41263).

Manzili: Bulung‘ur tumani Kichik Kildon mahallasi, Peshqadam ko‘chasi, 9-uydagi 42-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi binosi.

14-Mingchinor saylov okrugi

Bulung‘ur tumanining Oqtepa, Gulobod, Zarafshon, Qo‘ng‘iroq, Mingchinor, Beshkuvi, Gulzor, Suluvqo‘rg‘on, Xo‘jabachcha, Esonturdi, Alisher Navoiy, Saxovat, Dexqonobod, Mirzaariq, Elobod, Qirg‘shodi, Kaptarxona mahallalari chegaralarida (39652).

Manzili: Bulung‘ur tumani Mingchinor mahallasi, Mingchinor markaziy qo‘rg‘onidagi 36-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi binosi.

15-Dehqonobod saylov okrugi

Jomboy tumanining Ahmadjon Qurbonov, Zarafshon, Toshkent, Dehqonobod, Saroy, Qo‘rg‘onsalomon, Eski Jomboy, Quduqli, Olmazor, Nayman, So‘xmon, Nazar, Beshbola, Qoramo‘yin mahallalari chegaralarida (37639).

Manzili: Jomboy tumani Toshkent mahallasi, Toshkent ko‘chasi, 15-uydagi 10-musiqqa va san‘at maktabi binosi.

16-Xolvoyi saylov okrugi

Jomboy tumanining Shodlik, Alisher Navoiy, Ahmadjon Qurbonov, Guliston, Kattaqishloq, Sarichashma, Taldiraq, Xolvoyi, Tut, No‘sh, To‘qqizbo‘y, Surichay, Naymantepa mahallalari chegaralarida (37751).

Manzili: Jomboy tumani Kattaqishloq mahallasi, Kattaqishloq ko‘chasi, 2-uydagi 22-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi binosi.

17-Ko‘kgumbaz saylov okrugi

Jomboy tumanining Nogahon, Sherqo‘rg‘on, Polvonariq, Qo‘lboni, Qo‘ng‘iroq, G‘azira, Sariqipchoq, Qang‘li, Xitoypoyon, Ko‘kgumbaz, Shirinkent, Samarqand, Qoramo‘yin fuqarolar yig‘inlari chegaralarida (37823).

Manzili: Jomboy tumani Ko‘kgumbaz mahallasi, Ko‘kgumbaz ko‘chasi, 11-uydagi “Ko‘kgumbaz” madaniyat uyi.

18-Sanoat saylov okrugi

Payariq tumanining Alisher Navoiy, Go‘zal, Mustaqillik, Farovon, Boshcho‘rosh, Xosa, Boshqo‘rg‘on, Javsharota, Qirg‘ovul, Darvishiq, Gulzor, Ko‘paki, Yangiobod, Madaniyat, Bahor mahallalari chegaralarida (42409).

Manzili: Payariq tumani Go‘zal mahallasi, Cho‘lpon ko‘chasi, 52-uydagi 17-bolalar musiqqa va san‘at maktabi binosi.

19-Guliston saylov okrugi

Payariq tumanining Do‘stlik, Oqtosh, Istiqlol, Dehqonobod, Guliston, Juvozxona, Sho‘rtepa, Beshqo‘rg‘on, Birlashiq, To‘hirshayx, Fidokor, Baxrin, G‘allakor, Ko‘lto‘sin, Nakurt mahallalari chegaralarida (40544).

Manzili: Payariq tumani Farovon mahallasi, Samarqand ko‘chasi, 16-uydagi 1-kasb-hunar maktabi binosi.

20-Birlashgan saylov okrugi

Payariq tumanining Tomoyrot, Ilg‘or, Navro‘z, Navbahor, Do‘stlarobod, Bobur, To‘polos, Xalqobod, Ernazarqo‘rg‘on, Zarafshon, Choshtepa, Xo‘ja Ismoil, Oqqo‘rg‘on, Maniobod, Sorisuv, Olmazor, O‘zbekiston mahallalari chegaralarida (41759).

Manzili: Payariq tumani Xalqobod mahallasi, Eshimov qsoq qishlog‘i, 18-uydagi 3-kasb-hunar maktabi binosi.

21-Payariq saylov okrugi

Payariq tumanining Ahmad Yassaviy, Bunyodkor, Yangi hayot, Qumchuq, Xo‘jaobod, G‘o‘yib ota, Mirzo Ulug‘bek, Toshhovuz, Ko‘ktepa, Burqut, Polvonariq, Turkibola, Aliobod, Kattasaydov, Taraqqiyot, Sarbozor, O‘ymovut, Fitrat mahallalari chegaralarida (44670).

Manzili: Payariq tumani Qumchuq mahallasi, Furqat ko‘chasi, 24-uydagi 2-kasb-hunar maktabi binosi.

22-Jo‘sh saylov okrugi

Qo‘shrabot tumanining Navkat, Qo‘shrabot, Shova, Pangat, Yangiobod, Qovunchi, Qoratosh, Minishkor, Yuqori Jo‘sh, Jo‘sh ota, Chimmos, Katta Oqmachit, Qo‘shnamg‘ali, Chinoq, Toz, Urganji, Oqchobsoy, Yangiqishloq, O‘rtasoy, Jonbuloq, Sorig‘ul mahallalari chegaralarida (34713).

Manzili: Qo‘shrabot tumani Chimmos mahallasidagi 2-ixtisoslashtirilgan maktab binosi.

23-Qo‘shrabot saylov okrugi

Qo‘shrabot tumanining Buloqboshi, Sohibkor, Mustaqillik, Qo‘ralos, Namuna, Pichot, Bozorjoy, Tegirmonovul, Buloq, Ozod, Boypori‘ishli, Quvkalla, Chorloq, Yuqori Saroy, Boyto‘p, Mayintepa, Zarkent, Xonnazar, Qo‘rg‘on, Shovona, Qiyqim, Zarmitan, Tinchlik mahallalari chegaralarida (41849).

Manzili: Qo‘shrabot tumani Buloqboshi mahallasi, Buloqboshi ko‘chasi, 128-uydagi 1-ixtisoslashtirilgan maktab binosi.

24-Mitan saylov okrugi

Ishtixon tumanining Beshbola, Chag‘atoy, Qo‘chqor Qarshiyev, Namuna, Do‘stlik, To‘por, Barlos, Zarband, Gulobod, Mirshkor, Qiyot, Odil, Orlot, Qayirma, Sohibkor, O‘zbekqo‘rg‘on, Bog‘ixon mahallalari chegaralarida (42856).

Manzili: Ishtixon tumani Mitan shaharchasi, Qo‘chqor Qarshiyev mahallasi, Amir Temur ko‘chasi, 24-uydagi 41-umumta‘lim maktabi binosi.

25-Ishtixon saylov okrugi

Ishtixon tumanining O‘zbekiston, Chimqo‘rg‘on, Yangikent, Chaqar, Xonaqa, Boyto‘bi, Damariq, Qoraqo‘yli, Toytuyoq, Baxrin, Ko‘tarma, Shayxislom, G‘afur G‘ulom, Shayxlarkent, Ishtixon, Jo‘ra Mahmudov, Qoraqishloq, Bo‘ston mahallalari chegaralarida (41791).

Manzili: Ishtixon tumani Qoraqo‘yli mahallasi, Ishtixon ko‘chasi, 22-uydagi 21-musiqqa va san‘at maktabi binosi.

26-Xalqobod saylov okrugi

Ishtixon tumanining Safoxo‘ja, Xalqobod, Beshariq, Humo, Murotobod, Ko‘ktepa, So‘g‘at, Ravot, Yo‘g‘ontepa, Minglar, Zarbuloq mahallalari, Oqdaryo tumanining Sug‘onchi, Oytamg‘ali, Primkent mahallalari chegaralarida (41167).

Manzili: Ishtixon tumani Shayxlar mahallasi, Ko‘kal-dosh ko‘chasidagi ixtisoslashtirilgan maktab binosi.

27-O‘rtaqishloq saylov okrugi

Ishtixon tumanining Bo‘ronxo‘ja, Shayxlar, Beshkapa, Katta Qangli, Qiryagit, Azamat, Dehqonobod, Chinorte-

pa, Qo‘ng‘iroq, Boyliota, Mirzaqul, Mohpar, Bog‘bon, Zartepa, Hazorbobo, Yangiravot mahallalari chegaralarida (41144).

Manzili: Ishtixon tumani G‘afur G‘ulom mahallasi, Kattaqo‘rg‘on ko‘chasi, 41-uydagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi binosi.

28-Kattaqo‘rg‘on saylov okrugi

Kattaqo‘rg‘on tumanining Tarnov, Javlon, Bog‘ot, Yodgorxo‘ja, Cho‘yanchi, Sebeston, Qo‘shqo‘ton, Andoqsoy, Moybuloq, Qoqsoy, Yonboshsoy, Burgansoy, Jizmonsoy, Qo‘shhovuz, Chig‘atoy, Jumaboy, Nisbat, Oyjon mahallalari chegaralarida (44936).

Manzili: Kattaqo‘rg‘on tumani Bog‘ot mahallasi, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 24-uydagi 96-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi binosi.

29-Qoradaryo saylov okrugi

Kattaqo‘rg‘on tumanining Qiyot, Do‘stlik, Charog‘on, Alisher Navoiy, Madrasa, Mullako‘rpa, Mullatog‘ay, Yangiravot, Balandchordara, Olmazor, Zarqo‘rg‘on, Yakkabog‘i, Omonkalxat, Uyshun, Sho‘rak, Alijon, Yangiqo‘rg‘oncha, Melixo‘ja, Kattako‘rpa mahallalari chegaralarida (44449).

Manzili: Kattaqo‘rg‘on tumani Olmazor mahallasi, Abulqosim qishlog‘i, 28-uydagi 55-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi binosi.

30-Kattaming saylov okrugi

Kattaqo‘rg‘on tumanining Mundiyon, Tavaron, Jonkel, Qirg‘iz, Boltabek, Nayman, Yovi, Vayrot, Fayzikent, Qo‘shtepa, Yangiobod, Vilijon, Kattaming, Qumoq, Mo‘minxo‘ja, Kadan, Mirzo Ulug‘bek mahallalari chegaralarida (44445).

Manzili: Kattaqo‘rg‘on tumani Kadan mahallasi, Kadan qishlog‘i, 128-uydagi 98-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi binosi.

31-Saroyqo‘rg‘on saylov okrugi

Kattaqo‘rg‘on tumanining Polvontepa, Yangihayot, Balandravot, Qoradaryo mahallalari, Narpay tumanining Oqoltin, Ko‘kota, Toshko‘prik, Xo‘jaqo‘rg‘on, Obihayot, Ravot-Olchin, Chorbog‘i, Tapaqo‘rg‘on, Haqiqat, O‘zbekkent, Beklar, Xarxin, Xo‘jakarzon, Sohibkor, Birlik mahallalari chegaralarida (45684).

Manzili: Kattaqo‘rg‘on tumani Balandravot mahallasi, Qilich qishlog‘i, 4-uydagi 36-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi binosi.

32-So‘fi Olloyor saylov okrugi

Kattaqo‘rg‘on shahrining G‘arbmachit, Haydarchaman, Alisher Navoiy, Mehrjon, Amir Temur, O‘rikzor, Baland Chinobod, Do‘stlik, Bahoriston, Kunjipay, Zomin, Zarafshon, Noqis, Oq oltin, Go‘zalkent, Kattaqo‘rg‘on, Nurafshon, So‘fi Olloyor, Miyonqol, Chordara, Qoriravot, Ziyolilar, Yakkabog‘i, Abdulla Qahhor, Islom shoir, Usmon Nosir, Nurobod, Kattaqo‘rg‘on mahallalari chegaralarida (44528).

Manzili: Kattaqo‘rg‘on shahri Zarifobod mahallasi, O‘zbekiston ko‘chasi, 149-uydagi shahar tibbiyot birlashmasi binosi.

33-Saroy saylov okrugi

Kattaqo‘rg‘on shahrining G‘arbmachit, Amir Temur, Damariq, Ermachit, Zarifobod, Ko‘hnadon, Navbahor, Qo‘shhovuz, Chinobod, Ochildi Miriy, Vatanparvar mahallalari, Kattaqo‘rg‘on tumanining Omonboy ko‘prik, Namoz polvon, Go‘zal, Kumushkent, Saroyqo‘rg‘on, Yangiqiyot, Qorako‘lcha, Qushbegi, Navbahor, Balandchordara, Kumushqirg‘oq, Bunyodkor mahallalari chegaralarida (44528).

Manzili: Kattaqo‘rg‘on shahri Amir Temur mahallasi, Amir Temur ko‘chasi, 6A-uydagi shahar pedagogika kolleji binosi.

34-Oqtosh saylov okrugi

Narpay tumanining Xalqobod, Baxt, Oqtosh, Islom shoir, Alisher Navoiy, Farovon, Zirabuloq, Yangiobod, Tinchlik, Muqimiy, Nogo‘oraxona, Islomobod, Ahillik, Amir Temur, Bolg‘ali, Tapa, Mang‘it, Mushkent, Narpay, Barkamol, Bo‘ston, Guliston mahallalari chegaralarida (38760).

Manzili: Narpay tumani Amir Temur mahallasi, Katta ariq ko‘chasi, 164-uydagi 13-bolalar musiqqa va san‘at maktabi binosi.

(Davomi 4-sahifada) >>>

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashiga saylov o'tkazuvchi saylov okrugi

(Davomi. Boshlanishi 3-sahifada).

35-Mirbozor saylov okrugi

Narpay tumanining No'g'ay, Dedan, Umid, Yangiariq, Tortuvli, Qoziyoqli, Oltio'g'oil, Yangiariq mahallalari, Paxtachi tumanining Zarafshon, Keshtali, Do'ng, Shamsnazar, Dobusqal'a, Qaynarbuloq, Nayman, Boltali, Jona, Ukhrash, Urg'uch, Farovon, Yo'ldoshobod mahallalari chegaralarida (40399).

Manzili: Narpay tumani Dedan mahallasi, Mustaqillik tor-2 ko'chasi, 2-uydagi xizmat ko'rsatish texnikumi binosi.

36-Qadim saylov okrugi

Narpay tumanining Salovat, Sarbozor, Iymon, Istiqlol, Turon, Navro'z, Do'stlik, Mustaqillik, O'zbekiston, Ipak yo'li, Qozikent, Totkent, Chaykal, Ko'kota mahallalari chegaralarida (40548).

Manzili: Narpay tumani Haqiqat mahallasi, Navqiron ko'chasi, 8-uydagi 70-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

37-Sultonobod saylov okrugi

Paxtachi tumanining Burqut, Gulshan, Mirzo Nodim, Qo'shhovuz, To'g'olon, Istiqlol, Yobu, Toma, Ko'rpa, Tinchlik, Sardoba, Quvondiq, Hunarmand, Mirzo Olim, Xudoyberdi, Go'ro'g'li, Urganji, Oqtepa, Saroy, Amirobod, Nahripay, Mo'ror, Nurafshon, Obodon, Mirza Salimiy mahallalari chegaralarida (36266).

Manzili: Paxtachi tumani Mirza Salimiy mahallasi, Nurhayot ko'chasi, 1-uydagi 2-kasb-hunar maktabi binosi.

38-Xumor saylov okrugi

Paxtachi tumanining Suluvqo'rg'on, Gulobod, Taraqqiyot, Hayit Elbegi, Qirguli, Yangiobod, Istiqlol, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, Toshko'prik, Mirkan, Bo'ston, Jahonbodi, Bodoy, Guliston, Qoratepa, Tadbirkor, Fay, Bog'oloni, Chorgo'sha, Qarnabota, Chashma mahallalari chegaralarida (35814).

Manzili: Paxtachi tumani Amir Temur mahallasi, Mevali ko'chasi, 1-uydagi 22-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

39-Sobirsoy saylov okrugi

Nurobod tumanining Sahoba, Arabota, Bunyodkor, Nurafshon, Buloqboshi, Ag'ron, Navbahor, Jarquduq, Qo'rg'oncha, Lolazor, Amir Temur, Navro'z, Sharq yulduzi, Nurdum, Qilichli, Ittifoq, Mash'ali, Nurbuloq, Po'latchi mahallalari chegaralarida (40778).

Manzili: Nurobod tumani Navro'z mahallasi, Mustaqillik ko'chasi, 22-uydagi 18-musiqqa va san'at maktabi binosi.

40-Ulus saylov okrugi

Nurobod tumanining Ulus, Xalqobod, O'rtabo'z, Olg'a, Chorvador, Omondara, Tegirmonboshi, Girdiqo'rg'on, Jom, Do'stlik, Sarikul, Tapaqul mahallalari chegaralarida (36349).

Manzili: Nurobod tumani Ulus mahallasida joylashgan 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

41-Mevali saylov okrugi

Past Darg'om tumanining Mehnat, Temirxo'ja, Sanchiqul, Xonchorbog', Bobur, Elbek, To'rt tom, Ilm mahallalari, Nurobod tumanining Yuksalish, Oltinsoy,

Boshquduq, Mehnatkash, Sazag'on, Saroy, Oqsoy, Chor-tut mahallalari chegaralarida (42150).

Manzili: Past Darg'om tumani Paxtakor mahallasi, 52-uydagi 3-kasb-hunar maktabi binosi.

42-Go'zalkent saylov okrugi

Past Darg'om tumanining Beklar, Olti qahramon, Go'zalkent, Paxtakor, Temiryo'li, Navro'z, O'tarchi, Mustaqillik, Qorasuv, Tozqulon, Navbahor, Qoqsoy, Yangi avlod, Guliston, Qo'shquduq, Qarshiobod, Oshiqota, Mash'al, Zormon, Yangi ravot, Yangi qishloq, Chimboy, Bog'ishamol, Bahor mahallalari chegaralarida (41435).

Manzili: Past Darg'om tumani Olti qahramon mahallasidagi 2-bolalar va o'smirlar sport maktabi.

43-Juma saylov okrugi

Past Darg'om tumanining Furqat, Alisher Navoiy, Sharof Rashidov, Sazag'on, Amir Temur, Bo'ston, Hovuzak, Samarqand, Po'latchi, Turon, Eski Juma, Qatorterak, Yangiobod, To'qboy, Galatut, Boldir, Istiqlol, Gumbaz, Do'rmonsoy, Chandir, Do'stlik, Chandirobod mahallalari chegaralarida (41431).

Manzili: Past Darg'om tumani Po'latchi mahallasi, To'maris ko'chasi, 47-uydagi 2-ixtisoslashtirilgan maktab-internati binosi.

44-Charxin saylov okrugi

Past Darg'om tumanining Mirzo Ulug'bek, Tinchlik, Charxin, Oq oltin, Gulakandoz, Nayman, Balxiyon, Chortut, Kamolot, Mirzato'p, Qozoq nayman, Turkman, Yangisanoat, Madaniy urush, Imomjon, O'rta Charxin, Qo'shchinor, Shombuloq, mahallalari chegaralarida (42663).

Manzili: Past Darg'om tumani Chortut mahallasidagi 4-kasb-hunar maktabi binosi.

45-Arabxona saylov okrugi

Past Darg'om tumanining Qo'yi Darg'om, Iskandari, Boltali, Maroqand, Zangiboy, Maroqanda, Ravot, Baxshiboy, Gulobod, Qo'qoni, Qorovultepa, Sinchi, Qorag'uppa, Jag'alboyli, Beshbola mahallalari chegaralarida (41239).

Manzili: Past Darg'om tumani Baxshiboy mahallasi, Shoh ko'chasi, 1-uydagi 2-kasb-hunar maktabi binosi.

46-Po'latchi saylov okrugi

Past Darg'om tumanining Parchaqora, Katta Naymancha, Parcha Chandir, Oqmag'it, Mang'itobod, Kichik Naymancha, Novchandir, Olmazor, Joul Qosim, Bog'onali, Ag'ron, Buyuk Turon, Esaboy, To'rt ayg'ir, Beshnayman, Torariq, Qoramang'it, Paxtachi, Yuqori Bog'onali mahallalari chegaralarida (42246).

Manzili: Past Darg'om tumani Qorovultepa mahallasi, 66-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

47-Ohalik saylov okrugi

Samarqand tumanining Ohaliki, O'rta Ohaliki, Yangi joy, Chorshanba, O'rta Ohaliki, Parrandachilik, Mironqul, Gulbog', Sulfakabutak, Ko'saho, Xo'ja Ahror Valiy, Mirzo Ulug'bek, Bo'zi, Xaymaribolo, Xaymaripoyon, Yangiariq mahallalari chegaralarida (43357).

Manzili: Samarqand tumani O'rta Ohaliki mahallasi, Novvoylar ko'chasi, 51-uydagi 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

48-Dashtak saylov okrugi

Samarqand tumanining Qozariq, Jo'yisoy, Pulimug'ob, Chumchuqli, Badal, Rajabamin, Rustam, Qo'shtamg'ali, Konigil, Obod, Qavchinon, Gulobod, Dashtobod, Jarqishloq, Shirinobod mahallalari chegaralarida (41764).

Manzili: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Toshkent ko'chasi, 85-uydagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

49-Ravonak saylov okrugi

Samarqand tumanining Dehnav, Shalg'amon, Qavchi nonibolo, Qumzor, Qo'shko'prik, Andijoni, Qo'lba, Navobod, Nayzatepa, Sho'rboicha, Jo'y Abbos, Sho'rboi, Chaman, Diyor, Ravonak, Talibzaruiyobol, Talibzaruiyopoyon, Qozoqo'rg'on, Angorolmos, Qo'shmachit, Oqmachit mahallalari chegaralarida (41191).

Manzili: Samarqand tumani Ravonak mahallasi, Gulob ko'chasi, 25-uydagi Ravonak kasb-hunar maktabi binosi.

50-Do'stlik saylov okrugi

Samarqand tumanining Saxovat, Arabxona, Nurafshon, Xishrav, Do'stlik, Buxoriy, Urganji, Yuqori turkman, O'rta turkman, Quyi turkman, Quyi Chordara, Yuqori Chordara, Nayman, Qaynama, Yangiravot, Navbog', Mirishkor, Ravot, Davlatobod, Vorsin, Beklar, Xonchorbog', Madaniyat, Muborak, Qo'rg'oncha, Baxshitepa, Bog'ichinor mahallalari chegaralarida (44016).

Manzili: Samarqand tumani Arabxona mahallasi, Mushtariy ko'chasi, 9-uydagi 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

51-Sochakibolo saylov okrugi

Toyloq tumanining Istiqlol, Sochak, Gulobod, Uzunqishloq, Eski Juma, Ukrach, Bunyodkor, Nayman, Imobod, Nurafshon, Ravot, Davlatobod, Vorsin, Beklar, Xonchorbog', Madaniyat, Muborak, Qo'rg'oncha, Baxshitepa, Bog'ichinor mahallalari chegaralarida (46052).

Manzili: Toyloq tumani Uzunqishloq mahallasi, At-Termiziy ko'chasi, 1-uydagi 58-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

52-Toyloq saylov okrugi

Toyloq tumanining Navbahor, Baxshitepa, Birlilik, Charog'bon, Qo'shchinor, Sariosiyo, Adas, Shoppo'lat, Navzandak, Yastepa, Xo'jaqishloq, Saribozor, Jumabozor, Jalolobod, Zarafshon, Yangi hayot, Talliota, Tapaqishloq mahallalari chegaralarida (44505).

Manzili: Toyloq tumani Bog'ichinor mahallasi, Mustaqillik ko'chasi, 5-uydagi 2-kasb-hunar maktabi binosi.

53-Bog'izog'on saylov okrugi

Toyloq tumanining Xo'jayuz, Do'stlik, Bog'izog'on, O'zbekiston, Chorbog'tepa, G'o'lba, Olmazor, Nuroni, Taraqqiyot, O'ray-Elipok, Galabotir, O'rtaqishloq, Fayzobod mahallalari chegaralarida (45150).

Manzili: Toyloq tumani Bog'izog'on mahallasi, 15-uydagi 1-kasb-hunar maktabi binosi.

54-Urgut saylov okrugi

Urgut tumanining So'fiyon, Chorchinor, Mozortepa, Andak, Guliston, Kamangaroncha, Shodlik, Kulolik, Chorraha, Bog'ishamol, Navbog', Kamardon, Kamangaron, Mergancha, Mirzaqishloq, A'loxotin, Algar mahal-

lari chegaralarida (43626).

Manzili: Urgut tumani Yuqori Kalangar mahallasi, Navoiy shohko'chasi, 94-uydagi tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo'limi binosi.

55- Mirzaqishloq saylov okrugi

Urgut tumanining Yuqori Tegana, Quyi Tegana, O'ramas, Ipakli, Qo'yi Algar, Qayroqli, O'roqboyjar, Beshkapa, Yuqori Beshkapa, Qayroqli, Sanchiqul mahallalari chegaralarida (45568).

Manzili: Urgut tumani Quyi Algar mahallasi, O'ramas ko'chasi, 14-uydagi 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

56- To'rtko'li saylov okrugi

Urgut tumanining Xo'jaguzar, Yettiuylik, O'rtaguzar, Quyiuzar, Soyguzar, Soyg'us, To'rtko'li, Choshtepa, G'ijduvon, Murodqiqliq, Qoldavoyjar, Mo'minobod, Quyi Mo'minobod, Chumchuqli, Terak mahallalari chegaralarida (44035).

Manzili: Urgut tumani To'rtko'li mahallasi, G'avsul A'zam ko'chasi, 52-uydagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

57- Beshyog'och saylov okrugi

Urgut tumanining Jarqishloq, Beshyog'och, Mirzabog'lon, Chep, Vatkan-Qo'zibek, Ishchan, Quyiqishloq, Jartepa Rahmatobod, Boybul, Jartepa, Vatak, So'fi, Mo'g'ol, Uzun, Tinchlik, Pochvon, G'oyibota mahallalari chegaralarida (46356).

Manzili: Urgut tumani Quyiqishloq mahallasi, Jayhun ko'chasi, 104-uydagi 132-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

58- Jozmon saylov okrugi

Urgut tumanining Oqmachit, G'ishtmachit, Mang'itobod, Birlilik, Nisbot, Qorabuloq, Jo'robtepa, Jozmon, Etak Beshkapa, Bekravot, Bunyodkor, Vag'ashti, Xo'jayduq mahallalari chegaralarida (45502).

Manzili: Urgut tumani Jo'rabtepa mahallasi, 5-uydagi 51-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

59- Kenagas saylov okrugi

Urgut tumanining Sariqtepa, Dehqonobod, Sanchiqul, Sovg'on, Taroqli, Ukrach, Baxrin, Kenagas, Qoratepa, Beshkon, Qaynarbuloq, Ipak yo'li, Tersak, Omondara, Uzunsay mahallalari chegaralarida (44989).

Manzili: Urgut tumani Kenagas mahallasi, Amir Temur ko'chasi, 4-uydagi 103-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi.

60-Chinor saylov okrugi

Urgut tumanining Pastki Kalangar, Yuqori Kalangar, Do'stlik, Chag'izmon, G'o'slik, Navro'z, Katta Torinjak, Kichik Torinjak, Toshariq, Ko'tarma, Satang, O'zbekiston, Jayratepa, Gulobod, Xo'jabizog'on mahallalari chegaralarida (45035).

Manzili: Urgut tumani Do'stlik mahallasi, Yangiariq ko'chasi, 1-uydagi 31-bolalar musiqqa va san'at maktabi binosi.



* Qavs ichidagi raqamlar saylov okrugi bo'yicha saylovchilar soni.

Joriy yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga saylov bo'lib o'tadi. Tabiiy savol tug'iladi, har bir boradagi tartiblarda nimalar o'zgardir? Bu haqda aniq tushunchaga ega bo'lish uchun dastlab quyidagi savolga javob topishimiz kerak:

Saylov nima va biz nima uchun ovoz beramiz?

Mazkur siyosiy jarayon demokratik jamiyatlarning asosiy elementi sanalib, ular fuqarolarga qonun chiqaruvchi hokimiyatda kim vakillik qilishi, davlat va jamiyat qanday boshqarilishi haqida o'z so'zini aytish imkonini beradi. Oddiyroq aytganda, bu – ma'lum davlat lavozimlari (prezidentlik, deputatlik)ga nomzodlarni tanlab olish bilan bog'liq qaror qabul qilish jarayoni. Ovoz berish esa saylovga taalluqli harakat bo'lib, bunda asosiy maqsad fuqarolarning tanlovni amalga oshirishidir.

TIZIMLAR AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Dunyo mamlakatlari o'zlarining ijtimoiy-siyosiy rivojlanish sharoitidan kelib chiqib, turli saylov tizimlaridan foydalanadi. Bugungi kunda global miqyosda majoritar, proporsional va gibrid yoki aralash saylov tizimlari shakllangan. Ularning har biri afzallik va kamchilliklarga ega.

Majoritar saylov tizimi tartiblariga ko'ra, qonun bilan belgilangan ko'pchilik ovozni olgan nomzod muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Ushbu tizimda nomzodning g'olib bo'lishi uchun zarur bo'lgan ovoz miqdori har bir davlatning qonunchiligida belgilab qo'yiladi. Ak-sariyat holatlarda 3 xil: **mutlaq ko'pchilik** (50%+1 ovoz), **nisbiy ko'pchilik** (boshqa nomzodlarga nisbatan ko'p ovoz olish) va **malakali ko'pchilik** (nomzod ma'lum foiz, masalan, 2/3 foiz saylovchining ovozi olish talab etiladi) ovoz ajratiladi. AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksika, Fransiya, Chili kabi davlatlarda ushbu saylov tizimidan keng foydalaniladi.

Saylov tizimlari:

Xorijiy tajriba va O'zbekiston qonunchiligi

Ekspertlar mazkur saylov tizimini saylangan deputatning o'z saylovchilari oldida to'g'ridan-to'g'ri javobgarligi yuzaga kelishi, g'olib bo'lgan deputatga vakillik organida salmoqli ko'pchilik o'rinni qo'lga kiritishini ta'minlashi va kichik partiyalarga, aholi orasida mashhur bo'lgan va o'zini o'zi namoyon qilgan nomzodlarga parlamentga kirish imkonini berishini e'tirof etadi.

Shu bilan birga, g'olibga juda kam farq bilan yutqazgan siyosiy kuchning qonun chiqaruvchi hokimiyatda umuman vakil bo'la olmagligi, ikkinchi tur saylovlarining o'tkazilishiga olib kelishi, bu esa o'z navbatida saylov jarajatlarning oshishiga sabab bo'lishi, ko'ppartiyaviylik tizimidan ko'ra ikki partiyali tizimning paydo bo'lishini rag'batlantirishi kabi holatlar majoritar saylov tizimining kamchilliklari sifatida ko'riladi.

Proporsional saylov tizimi ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibiga asoslangan. Bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'lgan siyosiy partiyalar o'rtasida ular olgan ovozlarining soniga mos ravishda taqsimlanadi. Ya'ni, bu tizimda saylovchi aniq bir shaxsga emas, balki siyosiy partiyaga ovoz beradi. Proporsional saylov tizimi Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Mazkur tizim aholining turlicha bo'lgan siyosiy qarashlarini to'liqroq hisobga olish imkonini berishi, kichik partiyalar faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi, ko'ppartiyaviylikni rag'batlantirishi, yakuniy natijalarda barcha saylovchilarning ovozlari inobatga olinishi, saylov natijalari va mandatlar soni o'rtasidagi adolatli munosabatni ta'minlashi uning afzalliklari sifatida ko'riladi.

Aniq shaxsga emas, partiya ovoz berish tufayli saylovchilarga nomzodning xizmatlarini baholashga imkon berilmasligi, vakillik organi tarkibida ko'plab partiya

fraksiyalarining vujudga kelib, siyosiy tizimning barqarorligiga xavf solishi, deputatning partiya fraksiyasidan mustaqil bo'lmasligi kabi jihatlarda proporsional tizim kamchilliklari sifatida sanaladi.

ARALASH SAYLOV TIZIMI QANDAY ISHLYADI?

Kuzatilayotgan tendensiyalardan kelib chiqib, mutaxassislar keyingi yillarda majoritar va proporsional saylov tizimlarining eng yaxshi jihatlari o'zaro uyg'unlashtirish uchun markaziy va sharqiy Yevropadagi qator davlatlarda aralash saylov tizimini joriy qilish amaliyoti kuchayganini ta'kidlaymoqda. Aralash saylov tizimi o'zida ham majoritar, ham proporsional saylov tizimlari elementlarini mujassam etadi.

Ushbu tizimdan Germaniya, Ispaniya, Yaponiya, Vengriya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Gvineya, Albaniya, Koreya, Litva, Somali, Meksika, MDH mamlakatlaridan Rossiya, Armaniston, Qozog'iston, Ozarbayjon, Gruziya kabi 40 ga yaqin davlat foydalanib kelmoqda.

Masalan, **Germaniya** parlamenti – Bundeestagga saylovlarda aralash tizim qo'llaniladi. Uning deputatlarining yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglarida nisbatan ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim bo'yicha, ikkinchi yarmi esa ko'p mandatli saylov okruglari hisoblangan german yerlari (federatsiya subyektlari)da siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yxati asosida proporsional tizim bo'yicha saylanadi.

Avstraliyada esa parlamentning bir palatasi majoritar, ikkinchisi proporsional tizim asosida saylanadi.

Misrdagil aralash tizim partiyaviy ro'yxat bo'yicha ovoz berish va yakka tartibdagi saylovlardan iborat bo'lib, har bir saylov

okrugida bittadan individual nomzod saylanadi, qolgan o'rinlar esa partiyalarning ro'yxatidagilar o'rtasida taqsimlanadi.

Meksikada Federal kongressning deputatlar palatasi majoritar tizim asosida saylanadigan 300 hamda proporsional vakillik tizimi asosida saylanadigan 100 deputatdan iborat.

Parlament mandatlarining shakllanishidagi o'zaro taqsimot ham xorijiy davlatlarda turlicha. Misol uchun, **Qozog'istonda** parlament quyi palatasi deputatlarining 70 foizi proporsional tartibda, qolgan 30 foizi majoritar tizim asosida saylanadi. **Janubiy Koreya**da esa deputatlarining 16 foizi proporsional vakillik tartibida, qolgan 84 foizi bir mandatli saylov okruglaridan majoritar tizim asosida saylanadi.

Aralash saylov tizimini joriy etgan mamlakatlarda yoki majoritar-proporsional tizim asosida saylov o'tkazishda ovoz berish natijalarini aniqlash uchun saylov mezonlari (yoki kvota), bir deputatlik mandatini olish uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori o'rnatiladi. Ya'ni, bunda muayyan siyosiy partiyalar mandatlarini taqsimlashda qatnashishi uchun umumiy saylovchilarning belgilangan ovozlarni olish talab etiladi. Ushbu mezon turli mamlakatlarda har xil belgilangan. Xususan, Turkiyada 7 foiz, Qozog'iston, Rossiya va Ukrainada 5 foiz, Latviya, Yangi Zelandiya va Shvetsiyada 3 foiz, Daniyada 2 foiz va Niderlandiyada 0,67 foiz etib belgilangan.

O'ZBEKISTON SAYLOV TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

Yurtimizda parlament demokratiyasi-yani yanada rivojlanish, ko'ppartiyaviylikka asoslangan siyosiy tizimni yanada mustahkamlash, professional parlamentni shakllantirish va amalga oshirilayotgan islohotlarda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratil-

gan bir qator muhim o'zgarishlar kiritilmoqda. Xususan, qonun chiqaruvchi organ tarkibini shakllantirishda majoritar-proporsional tartib yoki aralash saylov tizimidan foydalanishning huquqiy asoslari yaratildi.

Bu tizimni joriy qilishning zaruratini davlat boshqaruvi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotimizda siyosiy partiyalarning ta'siri kuchaytirish, ularning o'rni va nufuzini oshirish, saylovoldi dasturlari va siyosiy faoliyatida aholining turli guruh va qatlamlari manfaatlarida jamoatchilik fikrini hisobga olish tendensiyasini kuchaytirish bilan izohlash mumkin.

O'zbekiston saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi 150 deputatlik o'rinlarining 75 tasida bir mandatli saylov okruglari bo'yicha majoritar tizim asosida, yana 75 tasida yagona saylov okrugi bo'yicha proporsional vakillik tartibida deputatlar saylanadi. Shuningdek, parlament quyi palatasi-ga saylovda yagona saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida 7 foiz ovozi olgan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo'ladi.

Bundan ko'rinadiki, aralash saylov tizimida asosiy e'tibor saylovchilar ovozi yuqori darajada olishga qaratiladi, har bir ovoz qadri oshadi. Majoritar saylov tizimi asosida yetarlicha deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritish uchun saylovchilarning ovozini oshirish uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori o'rnatiladi. Ya'ni, bunda muayyan siyosiy partiyalar mandatlarini taqsimlashda qatnashishi uchun umumiy saylovchilarning belgilangan ovozlarni olish talab etiladi. Ushbu mezon turli mamlakatlarda har xil belgilangan. Xususan, Turkiyada 7 foiz, Qozog'iston, Rossiya va Ukrainada 5 foiz, Latviya, Yangi Zelandiya va Shvetsiyada 3 foiz, Daniyada 2 foiz va Niderlandiyada 0,67 foiz etib belgilangan.

Umuman olganda, saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlar mamlakatimizdagi siyosiy institutlar faoliyatini mustahkamlab, demokratik jarayonlarning yanada takomillashib borishiga xizmat qiladi.

Dilnur A'ZAMOV, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi viloyat hududiy bo'linmasi yetakchi mutaxassisi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti ISHGA TAKLIF QILADI

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Elektr muhandisligi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha professor-o'qituvchilarni ishga qabul qiladi

Biz elektr muhandisligiga ishtiyoqi baland, o'zini ta'lim berishga bag'ishlagan va ushbu sohada ilmiy-tadqiqot va ijodiy amaliyotni rivojlantirishni maqsad qilgan professor-o'qituvchilarni ishga olamiz. Muvaffaqiyatli nomzodlar yuqori sifatli ta'lim berish, talabalarda soha bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish, shuningdek, innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqishga o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

MAJBURIYATLARI:

- Elektr muhandisligi, shu jumladan, elektr zanjiri, tizimlar, signallarni qayta ishlash, quvvat va energiya boshqaruv tizimlari bo'yicha bakalavriat va magistratura bosqichi fanlarini ishlab chiqish va o'qitish;
- Tashqi moliyalashtirishga yo'naltirilgan faol tadqiqot dasturini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash;
- Tadqiqot natijalarini yuqori impaktli jurnallarda nashr etish va milliy va xalqaro konferensiyalarda taqdim etish;
- Bakalavriat va magistratura bosqichi talabalarining ilmiy loyiha va tezislarga rahbarlik qilish;
- O'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'quv dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirishga hissa qo'shish;
- Kafedra va universitet tomonidan beriladigan topshiriqlarni bajarish, shuningdek, turli jamoat tadbirlarida faoliyat olib borish;
- Fanlararo tadqiqot loyihalari bo'yicha uni-

1. PROFESSOR LAVOZIMINI EGALLASH UCHUN TANLOVDA:

- professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxslar ishtirok etishi mumkin.
- tanlovda fan nomzodi, falsafa doktori ilmiy darajasiga yoki tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxslar kamida 5 yil ilmiy-pedagogik ish tajriga ega bo'lish, ushbu kafedraning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari muallifi bo'lish sharti bilan bir, besh yil mudatga ishtirok etishi mumkin.
- professor lavozimini egallash uchun professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash mezonlari (KPI) jadvalida ko'rsatilgan muhandislik (elektr muhandisligi), san'at va dizayn (kompyuter grafikasi va badiiy foto) sohalar uchun minimal va maksimal ballar jadvalida ko'rsatilgan tegishli minimal balga ega bo'lgan shaxs hujjat topshirishi mumkin.

2. DOTSENT LAVOZIMINI EGALLASH UCHUN TANLOVDA:

- dotsent ilmiy unvoniga, katta ilmiy xodim

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirova notarial idorasida marhum Madjidov Fattohga (2011-yil 24-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna notarial idorasida marhum Usmonov Djurakul Xamroqulovichga (2021-yil 5-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Melikova Kimyaga (2005-yil 31-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Xakberdiyeva Sulton Baxriyevnaga (1987-yil 27-iyunda vafot et-

gan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xalimov Xomidga (2017-yil 28-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Sanaqulov Abdiaziz Abdiboyevichga (2021-yil 21-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Alikulov Umar Turdinazarovichga (2021-yil 11-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

versitet professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda faoliyat olib borish.

MALAKA TALABLARI:

- Elektr muhandisligi yoki shu kabi turdosh mutaxassisliklar bo'yicha magistr yoki falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo'lish;
- A'lo darajada ta'lim berish va talabalarda muvaffaqiyatga qat'iy intilishni namoyish etish;
- Tadqiqot nashrlariga ega bo'lish, shu jumladan, taqrizchilar tomonidan tekshiriladigan jurnallardagi nashrlarga ega bo'lish va konferensiyalarda taqdimotlar o'tkazish;
- Elektr muhandisligi bo'yicha dasturiy vositalar va laboratoriya jihozlaridan foydalanish malakasiga ega bo'lish;
- A'lo darajadagi muloqot va shaxslararo ko'nikmalarga ega bo'lish;
- Ta'lim, tadqiqot va xizmat ko'rsatishda xilma-xillik, tenglik va inklyuziyaga sodiqlik.

USTUNLIK BERILADI:

- Doktorlikdan keyingi tajriba yoki muhim sanoat tajribasiga ega bo'lganlar uchun;
- Turli agentliklar, sanoat yoki boshqa tashqi manbalardan tadqiqot moliyalashtirishni ta'minlash tajribasiga ega bo'lganlar uchun;
- Onlayn yoki gibril fanlarni ishlab chiqish va o'qitish tajribasiga ega bo'lganlar uchun;
- Qayta tiklanadigan energiya, aqlli tarmoqlar va narsalar interneti (IoT) kabi elektr muhandisligining rivojlanayotgan sohalarida tajribaga ega bo'lganlar uchun.

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Kompyuter grafikasi va badiiy foto" ta'lim yo'nalishi bo'yicha professor-o'qituvchilarni ishga qabul qiladi

Biz kompyuter grafikasi va badiiy foto sohasiga ishtiyoqi baland, o'zini ta'lim berishga bag'ishlagan va ushbu sohada ilmiy-tadqiqot va ijodiy amaliyotni rivojlantirishni maqsad qilgan professor-o'qituvchilarni ishga olamiz. Muvaffaqiyatli nomzodlar yuqori sifatli ta'lim berish, talabalarda soha bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish, shuningdek, innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqishga o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

MAJBURIYATLARI:

- Kompyuter grafikasi va badiiy foto sohasi bo'yicha bakalavriat va magistratura bosqichi fanlarini ishlab chiqish va o'qitish;
- Talabalarga ta'lim va karyera masalalari bo'yicha maslahat va yo'l-yo'riqlar berish;
- Kompyuter grafikasi va badiiy foto sohasida ilmiy tadqiqot olib borish va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish;
- O'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'quv dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirishga hissa qo'shish;
- Kafedra va universitet tomonidan beriladigan topshiriqlarni bajarish, shuningdek, turli jamoat tadbirlarida va qabul komissiyasi tarkibida faoliyat olib borish;
- Kafedraning kompyuter grafikasi sanoati bilan aloqalarini rivojlantirish maqsadida sanoat korxonalarini hamkorlik qilish;
- Universitet kafedralari professor-o'qituvchilari bilan fanlararo loyihalarda hamkorlik qilish.

MALAKA TALABLARI:

- Kompyuter grafikasi, san'at, badiiy foto yoki shu kabi turdosh mutaxassisliklar bo'yicha magistr yoki falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo'lish;
- Universitet darajasida ta'lim berish tajribasiga ega bo'lish;
- Ilmiy nashrlar va ilmiy tadqiqot ishlariga ega bo'lish;
- Kompyuter grafikasi dasturlari (masalan, Adobe Creative Suite, Autodesk Maya, Blender) va fotografiya texnikasini bilish;
- Kompyuter grafikasi va badiiy foto bo'yicha nazariy va amaliy fanlarni ishlab chiqish va o'qitish qobiliyatiga ega bo'lish;
- A'lo darajadagi muloqot va shaxslararo ko'nikmalarga ega bo'lish;
- Ta'lim, tadqiqot va xizmat ko'rsatishda xilma-xillik, tenglik va inklyuziyaga sodiqlik.

USTUNLIK BERILADI:

- Virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va 3D chop etish kabi zamonaviy kompyuter grafikasi texnologiyalari bilan ishlaganlar uchun;
- Kompyuter grafikasi, raqamli san'at yoki fotografiya sohasida sanoat tajribasiga ega bo'lganlar uchun;
- Onlayn va gibril o'qitish usullari bilan ish tajribasiga ega bo'lganlar uchun;
- Tashqi moliyalashtirish manbaalarini topish bo'yicha ish tajribasiga ega bo'lganlar uchun.

uchun professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash mezonlari (KPI) jadvalida ko'rsatilgan muhandislik (elektr muhandisligi), san'at va dizayn (kompyuter grafikasi va badiiy foto) sohalar uchun minimal va maksimal ballar jadvalida ko'rsatilgan tegishli minimal balga ega bo'lgan shaxs hujjat topshirishi mumkin.

4. O'QITUVCHI LAVOZIMINI EGALLASH UCHUN TANLOVDA:

- kamida 3 yillik amaliy ish tajribasiga, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

5. STAJYOR-O'QITUVCHI LAVOZIMINI EGALLASH UCHUN TANLOVDA:

- tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

KERAKLI HUJJATLARI:

Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan nomzod universitetning xodimlar bo'limiga quyidagi hujjatlarini topshiradi:

- ariza;
- shaxsiy varaqa (ma'lumotnoma-obyektivka/rezyume);
- diplom nusxasi (bakalavr, magistr), shuningdek, chet elda olingan diplomni tan olish va nostrifikatsiyadan o'tganligini tas-

diqlovchi guvohnoma (oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining bitiruvchi kurslarida ta'lim olayotganlar bundan mustasno);

- fuqarolik pasporti yoki ID kartasi;
- professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash mezonlari (KPI) jadvalida ko'rsatilgan tegishli talablarni bajarganligini asoslovchi hujjatlar;
- xorijiy tilni (ingliz tiliga ustunlik beriladi) bilish darajasini asoslovchi sertifikat;
- nomzodning ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolari mavjud bo'lgan taqdir, ularga tegishli diplomlar, diplom nusxalarini va ilmiy ishlar ro'yxatini, malaka oshirish to'g'risidagi guvohnomalarni taqdim etishlari kerak.

QUYIDAGILARGA TANLOVDA QATNASHISHGA YO'L QO'YILMAYDI:

- o'n olti yoshga to'lmagan shaxslar;
- belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;
- universitetda mehnat faoliyatini olib borayotgan xodim bilan yaqin qarindosh yoki quda-anda bo'lsa (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, farzandlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari),

agar ishga qabul qilinayotgan yoki tayinlanayotgan lavozim ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qilishni taqozo qilsa;

- ishga kirish uchun soxta hujjatlar yoki bila turib yolg'on ma'lumotlar taqdim etgan bo'lsa;
- sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;
- qonun hujjatlarida belgilangan boshqa holatlar.

ARIZA TOPSHIRISH MUDDATI:

- 2024-yil 26-avgustgacha.

Kafedra professor-o'qituvchilari faoliyatini baholash mezonlari (KPI) va ilmiy darajalar mezonlari jadvali universitetning xodimlar bo'limidan olinadi.

SamDAQU jamoada xilma-xillik va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlashga intiladigan teng imkoniyatlarga ega ish beruvchidir.

Murojaat uchun: Samarqand viloyati Samarqand shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy.
Telefon: +99866-237-02-95.
Faks: (0366) 237-26-30.
E-mail: samdaqu@edu.uz

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Yusufov Yunusga (2021-yil 9-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Mirzoyev Muxiddingga (2008-yil 21-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Saniyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Xalimga (2001-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Safarova Mavlyu-

daga (2019-yil 18-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Normatov Murod To'ychiyevich notarial idorasida marhum Djalolov Tesha Sa'layevichga (2023-yil 10-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Normatov Murod To'ychiyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijon mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Djumayev Ural Yusupovichga (2021-yil 26-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ruda-kiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirova notarial idorasida marhum Nabyeva Ulmas Vahabovnaga (2020-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza

Zoirova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Achilov Ximmatqulga (2001-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Salamov Abdurafik Vaxobovichga (2018-yil 27-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjavey Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Mavlyanava Shoiraga (2021-yil 22-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjavey Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

TARBIYA

PEDAGOGIKASI

YANGI
DAVRNING
MA'NAVY
EHTIYOJI

Yaqinda davlatimiz rahbari maktab ta'limi sifati va pedagoglar malakasini oshirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Ushbu tadbirda Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti negizida Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish taklifi ham muhokama qilingani faqatgina soha xodimlarida emas, balki keng jamoatchilik, xalqimiz orasida ham katta qiziqish uyg'otdi. Ushbu yangilangan institutga uch halqa – "mahalla – ota-ona – maktab" hamkorligini kuchaytirish, tarbiyaga doir adabiyotlar yaratish, jadid bobolarimizning tarbiyaviy g'oyalarini ilmiy tadqiq etish vazifalarini qo'yish barobarida 5 ta ixtisoslik bo'yicha ilmiy kengash faoliyati hamda magistratura va doktorantura bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish kabi muhim vazifalar topshirildi.

Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish tarixiy ahamiyati nimada va u qanday maqsadlarga qaratilgan, degan savol tug'ilishi tabiiy. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, tarbiya – bugun jamiyatimizga suv va havodan zarur bo'lgan, farovon turmushimizni ta'minlashning eng ishonchli yo'li va kafolatidir. "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" degan iboraning o'zi buni yaqqol tasdiqlab turibdi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida "tarbiya" degan tushunchaga "aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning shakli, ma'naviy-xalqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon", deb ta'rif berilganligi ko'p narsani anglatadi. Ayniqsa, bugungi yangilanish davrida tarbiya jarayoni mamlakatimizdagi demokratik islohotlarning o'zini tashkil etadigan, uning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni va istiqbolini belgilab beradigan o'lim sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgani ham ayni haqiqatdir.

Xalqimiz orasida, badiiy va ilmiy adabiyotlarda "Insoniyat tarixi – g'oyalar tarixi", "Bashariyat tarixi – ma'naviyat tarixi" degan iboralar bor. Aslida "Insoniyat tarixi – tarbiya tarixi" degan ibora haqiqatga yaqin, desak to'g'ri bo'ladi. Chunki odamzod paydo bo'libdiki, tarbiya degan tushuncha bor. Aniqroq aytgach, "inson" va "tarbiya" degan tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq atamalaridir.

Aslida, "ta'lim" bilan "tarbiya" o'zaro aloqadorlikda, uzviy bog'liqlikda va o'zaro ta'sirda bo'lgan, bir-birini taqozo etadigan, bir-birini to'ldirib va boyitib boradigan tushunchalardir. Shu bois, davlatimiz siyosatida barkamol avlod tarbiyasini ta'limni rivojlantirish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikda olib borish ustuvor ahamiyatga egadir.

Yurtimizda tashkil etilajak Tarbiya pedagogikasi milliy instituti faoliyatida ana shu masala ustuvor ahamiyat kasb etishi tabiiy, albatta. Eng avvalo, maktablarda tarbiya fanini o'qitishning sifati va natijadorligini oshirish faqatgina maktabgacha va maktab ta'limi yoki oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklarining emas, aynan mana shu oliyog'ohning ham faoliyati mazmuniga aylansa, tarbiyadan ko'zlangan maqsadlarga erishish imkoniyatlarini oshadi.

Hozirgi kunda tarbiya fanini o'qitish borasida qanday jarayon kuzatilyapti, ushbu fanning ilmiy va o'quv-metodik ta'minoti, fanning istiqbollari qanday? Shu kabi masalalarni o'rganish, ilmiy tadqiq etish, ushbu fanni o'qitishning eng qulay, zamonaviy pedagogikaga asoslangan yechimlarini topish va amaliyotga joriy etish yangi milliy institut faoliyatida muhim yo'nalish bo'lib qolishiga mutaxassis pedagoglar katta umid bog'lamoqdalar.

Hukumatimiz 2019-yil 31-dekabrda "Uzlsuz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilgan edi. Ushbu hujjat asosida tarbiya fani, uni o'qitishga doir konsepsiya tasdiqlanib, unda yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq ishlarini yangi, zamonaviy bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim vazifalar, maqsad va yo'nalishlar belgilab berildi. Ushbu konsepsiyada belgilangan tadbirlar yoshlarimizni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, iste'dodini ro'yobga chiqarish, ularni yurt taraqqiyoti maqsadlariga yo'naltirish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Hukumatning 2020-yil 6-iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich

amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida 2020-2021-o'quv yilidan umumta'lim maktablarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqbol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1-9-sinflarda joriy etildi. So'ngra, 2021-2022-o'quv yilidan boshlab 10-11-sinflarda ushbu fan bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi belgilab qo'yildi. Oliy ta'lim muassasalarida ham tarbiya fanidan dars beruvchi bo'lajak pedagoglar uchun 30 soatlik hajmda ushbu fanni o'qitish metodikasi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

Umumta'lim maktablarida tarbiya fanidan kimlar dars berishi mumkin, degan savol ham o'zining javobini topdi: ushbu vazifa boshlang'ich, ya'ni 1-4-sinflarda boshlang'ich sinflar rahbarlari, 5-11-sinflarda esa avvalgi Vatan tuyg'usi, Milliy istiqbol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, shuningdek, tarix, ona tili va adabiyotdan dars beruvchi o'qituvchilarga yuklatildi.

Ba'zilar pedagogikani bola haqidagi fan deb tushunadi. To'g'ri, "pedagogika" degan so'zning ma'nosi "bola yetaklayman" degani bo'lsa-da, ushbu fan eng avvalo, inson haqidagi, uning tarbiyasi haqidagi fandir. Fransuz adibi Antuan de Sent-Ekzyuperi bejiz "Tarbiya ta'limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga yetkazadi", deb aytmagan. Shu ma'noda "tarbiya pedagogikasi" degan ibora chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lgan tushunchadir.

Tarbiya pedagogikasi, avvalo, o'quvchi-yoshlarning bilim olishga, mehnatga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. O'quvchida muloqot madaniyati, kommunikativlik fazilatlarini, aqliy salohiyat shakllanib boradi, bilimi va o'zligini namoyon etish xususiyatlari kuchayadi. Shuningdek, e'tiqod va hayotiy pozitsiya shakllanadi, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, mardonavorlik va mustahkam iroda ko'nikmalari tarkib topadi. Unda o'z-o'ziga tanqidchi baho berish, kamchilik va nuqsonlarni bartaraf qilishga intilish, ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash ko'nikmalari shakllanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat, bag'rikenglik xususiyatlari qaror topadi.

Aslida tarbiya fani o'qituvchisini tarbiya pedagogikasi ni targ'ib qiluvchi mutaxassis deb tushunish mumkin. U pedagogik mahorat bilan bir qatorda ma'naviy va mafkuraviy yetuklik, kasbga sadoqat, uni hayotining mazmuni deb bilish, vatanparvarlik, g'ururlilik, ilg'ma moyillik, bilimdonlik, tashkilotchilik, xushmuomalalik, kommunikativlik kabi shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi lozim.

Bugungi o'qituvchi o'z bilim va tajribasini oshirib borishi kerak. O'zgina bilim olish uchun ham ko'p o'qish kerak. "Men kam bilaman, lekin bilganlarimni juda yaxshi bilaman", degan ekan bir donishmand. O'qituvchi bo'lish yuksak sharaftga muayassar bo'lish demakdir. Hamma ham o'qituvchi bo'la olmaydi.

Sharhu G'arbning ulug' donishmandlari hikmatlarida aytilganki, yuksak g'oyaviy maqsadlarga asoslanmasdan turib komil insonni tarbiyalash mumkin emas. Biz yangi davrni, yangi O'zbekistonda barpo etmoqchimiz. Yangi O'zbekiston avvalo, ma'rifatli jamiyat degani. Bunday jamiyatga ma'rifatli insonlarga xos. Bugun tarbiya pedagogikasi xalqimizni ma'rifatli jamiyat sari yetaklaydigan yo'lchi yulduz – mayoq bo'lishi lozim.

Zayniddin BOLTAYEV,
Komil HAYDAROV,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professorlari.

SHU OYDA
TAVALLUD
TOPGANLAR

13-AVGUST
Foziljon ABDURAUPOV – 1948-yil Samarqand tumanida tug'ilgan. Faxriy jurnalist.
15-AVGUST
Telman RAJABOV – (1935-2020) Samarqand shahrida tug'ilgan. Fizik olim.
O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.
Nabijon HASANOV – (1913-1972) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti, bastakor.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida
2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438,
11 687 nuxxada chop etildi. Buyurtma 415. Hajmi 3 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'OLONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Kechagiday esimda. Ukam bolaligida: "Men katta bo'lsam, katta "guzovoy" moshin haydayman. Shofyor bo'laman" derdi og'zini to'ldirib. Maktabni bitirib, talaba bo'ldi. Uylandi. Kunlardan bir kuni shartta arizasini yozib, ishdan ketib qoldi. Bolalik orzusi ushulgach, menga Yevropadan ushbu maktubni yubordi. Vatan sog'inchiga to'la samimiy xatni sizlarga ham ilindim...

Assalomu alaykum, qadrdonim, mana, bugun o'sha kun! Yevropaga viza bilan ishlashga keldim. Bahor, havo endi isib, deyarli har kuni yomg'ir, hamma tomon yam-yashil, havo namligi me'yordan past bo'lganligidan o'pka to'yib nafas olyapti. Biz kelib joylashgan, katta bo'lmagan shahar top-toza, jamoat transportlari o'z vaqtida qatnaydi.

Shahar ko'chalarining bezaklari odamga osoyishtalik kayfiyatini berib turibdi. Odamlari yuzida tabassum, oddiygina, zamonaviy kiyingan. Birov sizga tikilib qaramaydi. Ish bo'yicha o'qishlarimiz va amaliy mashg'ulotlarimiz boshlandi. Texnika ta'minot va boshqa moddiy tomonlarini aytib o'tirishimizga hojat yo'q deb o'ylayman. Men ko'proq inson omiliga e'tiborimni qarattim, chunki bu chiroyli jamiyatni shu insonlar yaratgan-ku. Ajoyib, bu yerda "pora" "haqorat" degan tushunchalar sanoqli ekan.

O'qituvchi bo'lganim uchun dars jarayonidagi metodikaga e'tibor berdim, ajoyib, aniq va inson oson o'zlashtira oladigan darajada. Haftada 5 ish kuni, shanba va yakshanba dam olish kunlari ishlar oldindan tuzilgan va tasdiqlangan grafik asosida, hamma o'zining vazifasini bajarar ekan. Hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha ayrim idoralarga va tibbiy ko'riqqa bordik. Hamma joyda chiroyli muomala, o'zimizni mehmondek his qildik. Xayolan o'zimizdagi muomala madaniyati ko'z oldimga keldi.

Yevropaliklarning tabiatga bo'lgan e'tibori meni qoyil qoldirdi. Katta trassalarga hayvonlar chiqib ketib nobud bo'lmagligi uchun yo'l chetiga minglab kilometr to'siq setkalari tortilgan. Aholi punktlaridan o'tadigan yo'l qismlari shovqindan

Viloyat axborot-kutubxona markazi qoshida 2018-yilda ilmiy zal tashkil etilgandi. Ilmiy zal fondi bir yarim mingga yaqin bo'lib, e'likka yaqin avtoreferat, yigirmaga yaqin dissertatsiya, o'ndan ortiq ilmiy jurnal mavjud. Quvonarlisi, ushbu ilmiy ishlarni mualliflarining o'zlari taqdim etgan.

Ilmiy izlanish olib
boryapsizmi

xizmatimizdan foydalaning



Oxirgi paytda ilmiy izlanuvchilar o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlar juda kamligini bildirgandan so'ng bir qator yangi platformalarni yuklab oldik.

Jumladan, EBSCO host platformasi hozirda eng ko'p tarmoqli onlayn ma'lumotlar tizimi bo'lib, unda to'la matnli elektron kitoblar, xalqaro miqyosda chop etiladigan jurnallardagi iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, san'at, texnologiya, ekologiya mavzularidagi ma'lumotlar joy olgan.

Web of Science platformasida esa ilmiy jurnallar, kitob va xalqaro konferensiyalar dasturlaridan foydalanish mumkin.

ProQuest platformasida dunyo miqyosidagi dissertatsiya, diplom ishlarining to'la matnli kolleksiyasi o'rin olgan.

Zhanium.com elektron kutubxona bo'lib, kollej, oliy o'quv yurtlari va axborot-kutubxona markazlaridagi kitob, jurnal, maqolalarning elektron shakli bor.

Ilmiy zal mutaxassislari professor-o'qituvchilar va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy ishlarini samarali olib borishlari uchun tez va samarali xizmat ko'rsatishga tayyor.

Mahbuba KULOVA,
elektron resurslardan foydalanish va o'quv zallar xizmati rahbari.



himoya devorlari bilan jilozlangan. O'rmon to'la o'tin, singan, qurigan daraxtlar, bular esa o'tinni magazindan olishadi. Chorvalari ham boshqacha: bir qo'ra qo'y bo'lsa, hammasi bir xil turidan.

Dam olish kunlari shaharlarni tomosha qilaman. Eski arxitektura, butun boshli shahar asl holicha saqlangan. Bular eski tarixiy shaharni buzmas ekan, yangisini boshqa joydan qurisharkan.

Bir safar meni politsiya nazorati to'xtatdi. Barcha hujjatlarni va mashinani tekshirdi. Qiziq, pul so'ramadi, jarima qilmadi, garchi mayda qoidabuzarliklarim bo'lsa ham.

Do'stona muomalada, ayrim narsalar haqida tavsiyalar berdi, keyin xayrlashdik va yo'lida davom etdim. Hozircha shunaga gaplar...

Lekin faqat Vatan sog'inchi qiymaydi. Oila, jigarlar, Alloh panohida bo'linglar, vatandoshlarim!

Akbar SULTONOV.

Odamlar
talabchan
rahbarga
ergashadi

Yoshim 85 da. Bo'sh vaqtimni gazeta, kitob o'qib o'tkazaman. Televizor ko'rib, radio eshitib, dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalaridan voqif bo'lib boraman. Ayniqsa, yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, shahar qishloqlardagi o'zgarishlarni ko'rib, xursand bo'laman. Davlatimiz tomonidan biz, keksalarga ko'rsatilayotgan e'tibordan boshim ko'kka yetadi. Bayram kunlari "Nuroniy" jamg'armasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash b'limi vakillari, mahallamiz faollari kelib, holimizdan xabar olishadi. Sovg'a-salomlar berishadi. Chunki hayot keksalar bilan yanada fayzli.

Afsuski, Prezidentimiz ko'rsatayotgan tashabbuslarning ijrosiga tomoshabin bo'lib turgan rahbarlar hamon uchramoqda. Ularning noshudligi va qat'iyatsizligi tufayli ayrim jamoalar aziyat chekyapti, maoshlar vaqtida berilmaydi, ish rejasiz davom etadi, ko'rsatkichlar past.



Bugungi rahbar talabchan, xalq dardi, odamlar tashvishi bilan yashashi kerak. Shunday bo'lmasa, jamoa unga ergashmaydi.

Turdi TURSUNOV,
Payariq tumani.

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 14-avgust, chorshanba kuni chop etiladi.

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda